

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining dolzarbligi va uning asoslanishi: Jahonda umumta'lim fanlari mazmunini majmuaviy yondashuv tamoyili asosida ishlab chiqish va o'quvchilarning keng tarmoqli, umummehnat tayyorgarligini rivojlantirish, yangi mehnat sharoitlariga moslashuvchan bilim va malakalarni mustaqil egallashga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish, reklama va tijoriy faoliyat ko'nikmalarini tarkib toptirish, kichik korxonani boshqarishni o'rgatishga alohida e'tibor beriladi. Maktab ta'limida asosiy e'tibor o'quvchilarning kichik ishlab chiqarish korxonalariga jalb etishga qaratiladi. Mazkur kichik ishlab chiqarish korxonalari o'quvchilarni biznes olamiga olib kirish orqali amaliy ko'nikma va shaxsiy sifatlarni rivojlantirish, tashabbuskorlik va ijodkorlikni rag'batlantirishni ta'minlaydi, ularda mustaqil o'z-o'zini ish bilan ta'minlash imkoniyati mavjudligiga ishonchni qaror toptiradi va kasbga yo'naltirishga yordam beradi.

Dunyoda o'quvchilarda tadbirkorlik faoliyati uchun zarur kasbiy sifatlarni rivojlantirish va ishlab chiqarishni tashkil etish sohasida bilim va ko'nikmalarni tarkib toptirish, kasbiy-mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish jarayonida tadbirkorlik faoliyatiga jadal tayyorlashga doir ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy bilimlarni tarkib toptirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga yordam ko'rsatish uchun ta'limiy muhitni qo'llab-quvvatlash vositalarini ishlab chiqish, tadbirkorlik ta'limini joriy etishning faoliyatga yo'naltirilgan, o'quv fani sifatida, modulli, umumta'limiy yondashuv modellaridan samarali foydalanish, biznes asoslari va tadbirkorlik amaliyotini o'rgatishga doir ta'limiy dasturlarni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, har bir yoshni tadbirkorlik bilan shug'ullanishning fundamental asoslarini egallashi, tadbirkorlik faoliyatiga doir amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishiga erishishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat hayotini olg'a suruvchi, uni yanada yuksak bosqichlarga ko'tarib, ravnaq toptiruvchi, kelajak avlodlarni tarbiyalab yetishtiruvchi, kamol toptirish uchun mas'ul bo'lgan g'oyat muhim birlashma bu umumta'lim maskanlari

hisoblanadi. Aynan boshlang‘ich sinflardan boshlab bolalarda iqtisodiy bilimlarni tarkib toptirish, ularda iqtisodiy tafakkurni shakllantirish g‘oyat muhim hisoblanadi.

Yuqorida ta‘kidlanganidek boshlang‘ich sinflardan boshlab ularda iqtisodiy bilim tushunchalari singdirilib borilsa, iqtisodiy bilim tushunchasining nechog‘lik zarur ekanligi haqida ilk tushuncha va tasavvurlar shakllantirilib borilsa, o‘quvchilarda daromadlarning oshishi, iqtisodiy bilim saviyalari va madaniy hayotlarining yaxshilanishiga sabab bo‘lishi, shuningdek, moddiy-ma‘naviy ehtiyojlarining ijobiy shakllanishiga, oilaviy munosabatlarning takomillashuviga, boyishiga kattalar va kichiklar orasidagi muloqot mazmuniga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli o‘quvchilarda boshlang‘ich sinflarda boshlab iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantiish, ularda tadbirkorlikka doir savodxonligini oshirish zaruriy talab darajasiga aylanib bormoqda. Hozirgi davrda har tomonlama rivojlangan barkamol insonni tarbiyalashning maqsad va vazifalari ma‘naviy boylikni, axloqiy poklikni, jismoniy mukammallikni o‘zida mujassamlashtirgan ijtimoiy faol kishilarni tarbiyalashni taqozo etadi¹.

Respublikamizda “Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi doirasida o‘quvchilarni tadbirkorlik faoliyatiga yo‘naltirish, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, maktab va oila hamkorligi asosida o‘quvchilarda tadbirkorlik qobiliyatini shakllantirishga doir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga oilada tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik modeli va integrativ texnologiyasini ishlab chiqish, “ustoz-shogird” ana‘analari asosida yoshlarni kasb-hunarga maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish zaruriyati mavjud. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, mehnatga layoqatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to‘liq amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish”² kabi muhim vazifalar belgilab berildi. Bu esa, oilada tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish komponentlari, mezonlari,

¹ Xalq ta‘limi. 1-son .2014-yil .98-bet

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

pedagogik-psixologik xususiyatlarini, didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish, o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2017-yil 5-iyuldagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida" gi PF-5106-son, 2018-yil 27-iyundagi "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5466-son, 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni, "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: xorijlik olimlardan A.Gibb, M.John, R.Kreitner, R.Sarah, S.Moskovichi, M.Rokeach, J.Sey, N.Davies kabilarning tadqiqotlarida tadbirkorlik psixologiyasi, o'quvchilarni kichik korxonalarni boshqarishga o'rgatish, tadbirkorlik ta'limini tashkil etish yo'llari ko'rsatib berilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan Ye.Arnautova, A.Bartenev, V.Grebneva, A.Karpov, Ye.Klimova, I.Kondratenko, Ye.Manchuk, A.Miller, M.Nikulaeva, V.Petrishev, S.Savinova, A.Shilkina, A.Shukaeva, Ebrayimi Tagizadex Xosro Moradali kabilarning tadqiqotlarida oila va maktab hamkorligi, o'quvchilarni iqtisodiy ijtimoiylashuvini ta'minlashning pedagogik mexanizmlari, voyaga yetmaganlarda ijtimoiy-iqtisodiy xulq-atvor me'yorlarini shakllantirish masalalari bayon etilgan.

Respublikamiz olimlaridan B.Ganiev, M.Inomova, V.Karimova, N.Murodova, Q.Muftaydinov, A.Muxsueva, D.Raxmatullaeva, A.Kenjaboyev, A.Xudoyqulov, Z.Xudoyberdiev, G.Shodieva, Sh.Quvondiqov, O.Hayitov, R.Hakimov kabilarning

ilmiy tadqiqotlari, monografiya va o'quv qo'llanmalarida tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning huquqiy, iqtisodiy, psixologik va pedagogik jihatlarini, oilada tadbirkorlik motivatsiyasini shakllantirish mexanizmlari, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash masalalari yoritib berilgan.

O'quvchilarni iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirish, ularni tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish, ularni kasbiy shakllantirish, umumta'lim maktabi va oila integratsiyasi kabi masalalar tadqiq etilgan bo'lsada, boshlang'ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirish texnologiyasining pedagogik asoslari yaxlit tarzda tadqiq etilmagan. Bu esa, o'quvchilarda iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirishning milliy-ma'naviy omillari, pedagogik- psixologik xususiyatlari, zamonaviy yondashuvlar asosida ularni iqtisodiy bilim ko'nikmalarini rivojlantirishning amaliy-texnologik tizimini takomillashtirishni taqozo etadi.

Dissertatsiya ishining maqsadi: boshlang'ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirish texnologiyasining pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish, iqtisodiy bilim tushunchasini tarkib toptirishga doir ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Dissertatsiya ishining vazifalari:

- mavzuga oid pedagogik o'quv, o'quv uslubiy, ilmiy-metodik, ilmiy-tadqiqot mavzusi asosida o'rganish, tahliliy ma'lumotlarni olish.
- boshlang'ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirish masalasini o'rganish;
- "iqtisodiy bilim" tushunchasining mohiyatini ochib berish, o'quvchilarda iqtisodiy bilim ko'nikmalarini rivojlantirishning ishbilarmonlik, tashabbuskorlik, tadbirkorlik sifatlarini tarkib toptirish;
- o'quvchilarda iqtisodiy bilim tushunchasini texnologiya darslari orqali shakllantirish mazmunini yoritib berish;

Dissertatsiya ishining predmeti: boshlang'ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirish texnologiyasining shakl, metod va vositalari.

Dissertatsiya ishining obyekti: boshlang'ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirish jarayoni. Bunda tadqiqot obyekti sifatida Denov tumani 46, 14 - umumiy o'rta ta'lim maktabi va Uzun tumanidagi 5, 9 - umumiy o'rta ta'lim maktabda 1-4-sinf o'quvchilari (240 nafar)ni tashkil qiladi.

Dissertatsiya ishining metodlari: tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat, bahs-munozara, so'rovnoma, anketa, statistik tahlil usullardan foydalanildi.

Dissertatsiya ishining ilmiy yangiligi: boshlang'ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirish mazmuni yoritib berildi, boshlang'ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirish modeli yaratildi.

Dissertatsiyaning asosiy masalalari va farazlari: tadqiqot ishining asosiy masalalari deb boshlang'ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirish mazmuni, boshlang'ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirish yanada rivojlantirish, ulardagi tabdirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish.

Ushbu dissertatsiya ishidan kutilayotgan natijalar boshlang'ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirish, iqtisodiy savodxonlik darajasini yanada oshirish, tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari bajaradi.

Dissertatsiya natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati: Sharq mutafakkirlarining iqtisodiy tarbiya haqidagi ta'limotlari asosida iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirish bo'yicha tasniflangani, asarlaridagi iqtisodiy tarbiyaga oid qarashlarning bosqichma-bosqich shakllantirib borish yo'nalishlari bo'yicha tasnifidan foydalanish imkoniyatlari hamda mazmunidan iqtisodiy tarbiya tizimini takomillashtirish asosida iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirish mutafakkirlarning qarashlaridan foydalanish imkoniyatlari, turli xildagi mehnatsevarlik, tadbirkorlik tadbirlarda foydalanishga oid takliflar, iqtisodiy bilish tushunchasini boshlang'ich ta'limda bevosita davom ettirib borishda shakllantirish mumkinligi bilan belgilanadi.

Dissertatsiya natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 6 ta ish, jumladan, respublika va xorij jurnallarida 3 maqola, respublika va xorij konferensiyalarida 3 tasi tezis nashr etilgan.

Dissertatsiya ishining hajmi va tuzilishi: Dissertatsiya kirish, uch bob, sakkiz paragraf, boblar yuzasidan xulosalar, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat.

I BOB. BOSHLANG'ICH SINIF TEXNOLOGIYA DARSLARIDA IQTISODIY BILIM TUSHUNCHASINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASINING ILMIY PEDAGOGIK ASOSLARI

1.1.-§. Sharq mutafakkirlarining iqtisodiy tarbiya haqidagi ta'limotlari

Milliy tarbiya tizimida sinovdan o'tgan o'g'itlar, chin insoniy fazilatlar yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashning asosi – halollik, rostgo'ylik, o'zaro hurmat, mehnat qilish, hunar egallash, mehnatni qadrlash, mas'uliyatli, tashabbuskor bo'lish kabilarda aks etadi hamda hunar o'rganish, halol ishlab pul topish ustuvor hisoblanadi. A.Tojiboev, M.Asatullaeva IX-XV asrlarda Markaziy Osiyoda ilm-fan, savdo-sotiq, iqtisod rivojini quyidagicha izohlaydilar: “Bu davrlarda butun dunyoga tanilgan mutafakkirlar yashab ijod etdi. Ular asarlarida iqtisod, tijorat, mulkdorlik, hunar sirlari, qarz olish, qarz berish, meros taqsimlash, yetim-yesirlarga muruvvat ko'rsatish, xayr-ehson qilish, soliq turlari va miqdori, halol mehnat qilish, kasb egallash, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanish haqida ibratli fikrlar bayon etilgan. Ular bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q”³.

O'zbek xalqi juda qadimiy ma'naviy va iqtisodiy merosga ega. U o'lmas tarixiy merosi bilan har qancha faxrlanishga haqlidir. Bu iqtisodiy meros xalqimizning iqtisodiy mustaqillikni qo'lga kiritishi, zamonaviy iqtisodiy tafakkurga ega bo'lishi, iqtisodiy jihatdan iqtidorli millatga aylanishida xizmat qildi va qilmoqda. Shuni alohida qayd etish kerakki, Markaziy Osiyo xalqlarining tadbirkorlikka doir bilimlarini egallashlarida islom dinining tarqalishi, uning g'oyalari ham ijobiy ahamiyatga ega bo'ldi. Ma'lumki, islom iqtisodiy g'oyalari musulmonlarning muqaddas kitobi “Qur'oni Karim”da, payg'ambarimiz hadislarida, mashhur “Muxtasar” kitobida o'z ifodasini topgan.

Arab mamlakatlari va Markaziy Osiyoda o'rta asrlarda islom dini katta ta'sir kuchiga ega bo'ldi. Markaziy Osiyo xalq ommasining iqtisodiy bilimlar, tadbirkorlik madaniyati ko'proq diniy xarakterga ega bo'ldi. Tadqiqotchilarning

³ Tojiboev A., Asatullaeva M. Iqtisodiy ta'lim-tarbiya jarayonida ma'naviy meroslardan foydalanish // Kasb-hunar ta'limi. – Toshkent, 2005. -№1. – B. 29.

ta'kidlashlari bo'yicha, islom qolgan diniy ta'limotlar ichida yaqqol ifodalangan iqtisodiy g'oyalari bilan ajralib turadi⁴.

Bundan tashqari, "Qur'oni Karim"da savdoga, uni halol va adolatli yuritishga, savdo va tijoratdan foyda olishda insofni unutmaslikka katta o'rin berilgan, ayni chog'da, sudho'rlikka, boshqalar rizqiga ko'z olaytirmaslikka qarshi fikrlar bildirilgan. Ollohning kalomi bo'lgan bu muqaddas kitobda mulkning daxlsizligi e'tirof etilgan, boshqalar mulki va davlatiga xiyonat qilishga katta, kechirilmas gunoh deb qaralgan, qarz berish va qarz olish qoidalari, meros taqsimlash, yetim-yesirlarga alohida muruvvat ko'rsatish, xayr-ehson qilib turish g'oyalari ilgari surilgan. Ushbu muqaddas kitobda: kasb egallashga, dehqonchilik qilishga, qo'y boqishga, mehnat orqali hayot kechirishga da'vat qilingan; mehnat har bir musulmon uchun ham bu dunyo, ham u dunyoda rohat manbai deb tushuntirilgan.

"Qur'oni Karim"da va Payg'ambarimiz hadislarida ilgari surilgan eng muhim g'oyalardan biri – iste'mol me'yori, iste'mol chegarasi, ya'ni iste'mol madaniyati masalasidir. Ularda qayd qilinadiki, Alloh Taolo bandalariga dunyodagi barcha noz-ne'matlarni ularning iste'mol qilishlari uchun, farovon va to'q hayot kechirishlarini tashkil qilishlari uchun in'om etgan. "Bandalarim yenglar-ichinglar, isrof qilmanglar", iste'mol me'yoridan (qorin to'ygandan keyin) ortgandan keyin ham iste'mol qilish (ortiqcha yeb-ichish) makruhdir, deb farz qilingan. Bu islomiy g'oya ostida juda katta mazmun bor. Buning ma'nosi, bizning nazarimizda, iqtisodiy- ijtimoiy farovonlik, yaxshi turmush darajasi, noz-ne'matlarning mutloq ko'paytirilishi bilangina shakllanmaydi. Ne'matlar mo'l-ko'l bo'lishi mumkin, biroq uni isrof qilish, ikkilamchi va boshqa chiqindilarga ajratib tashlovchi texnologiyalarni qo'llash, iste'mol me'yori va madaniyatini bilmaslik qashshoqlik yoki iqtisodiy tanglikka olib kelishi mumkin⁵.

Islom iqtisodiy-tadbirkorlik g'oyalari Markaziy Osiyo allomalarining iqtisodiy tafakkuri rivoji manbai bo'lib qoldiki, bu Forobiy, ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos

⁴ Xudoyqulov A.B. Jamiyat ijtimoiy rivojlanishida iqtisodiy ongning roli: Falsafa fanlari nomzodi. diss. – T., 2005. – B.43.

⁵ Abdullaev A. Islomda iqtisodiy tafakkur // Muloqot, 1997. - №2. – B.56-57.

Hojib, Nizomul-Mulk, Amir Temur, Ulugʻbek, Navoiy, Bobur va boshqa koʻplab mutafakkirlar ijodida oʻz ifodasini topdi.

Markaziy Osiyoda tadbirkorlik gʻoyasi, ijtimoiy ongning taraqqiyoti Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy kabi jahonga mashhur olimlarning nomlari bilan bogʻliqdir.

Abu Nasr Forobiy va Abu ali ibn Sinolarning qarashlarida inson ehtiyojlari xaqidagi taʼlimot markaziy oʻrinni egallaydi. Forobiy fikri boʻyicha, kishilarning moddiy ehtiyojlari jamiyat shakllanishining birlamchi sababi hisoblanadi.

Abu Nasr Farobiy oʻzining “Fozil odamlar shahri” asarida “Kasb- hunarni ish tajribada jahd va gʻayrat bilan oʻz vujudlariga singdirganlaridan soʻng ularni asta-sekin egallay boradilar” degan fikrni ilgari surgan⁶¹. Allomaning fikricha, muayyan kasb-hunarni oʻrganishda, avvalo hunarga qanoat, gʻayrat va shijoat bilan yondashilsa, undagi bu intilish ravon harakatga kelib, shu hunarga nisbatan koʻnikish hosil qiladi.

Abu ali ibn Sino oʻrta asrning buyuk mutafakkirlaridan biri, qomusiy olimi, eng avvalo, tibbiyot sohasidagi asarlari bilan butun dunyoga mashhur, ammo, olimni tadbirkorlik masalalari ham qiziqtirgan. Uning oila, shahar va jamiyat doirasidagi daromadlar va harajatlar borasidagi mulohazalari ayniqsa, diqqatga sazovordir. Uning fikricha, davlat budjetida taʼlimga, tabiiy ofatlarga va urush (mudofaa) ga zarur vositalarni ajratishni hisobga olgan holda daromadlar va harajatlar mutanosibligiga erishish zarur.

Abu Nasr Forobiy va Abu ali ibn Sinolarning tadbirkorlik faoliyatiga doir merosi markazida inson va uning ehtiyojlarini qondirish masalasi turadi. Zero, yuqorida aytilganidek, inson bu dunyoning oliy neʼmati va uning ehtiyojlarini qondirish har qanday jamiyatning yashash va rivojlanish shartidir. Albatta, inson ehtiyojlari turli-tuman va doimiy oʻsib boruvchidir. Odamlar ehtiyojlarini iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, maʼnaviy kabi guruhlariga ajratish mumkin. Ammo inson ehtiyojlari ichida ustuvor oʻrinda iqtisodiy-ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish

⁶ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri / Tuzuvchi M.Mahmudov. – Toshkent, Meros, 1993. – B.185.

yotadi.

Beruniyning Markaziy Osiyoda tadbirkorlik asoslari taraqqiyotidagi xizmati shundan iboratki, u pulning kelib chiqishini birinchi bo‘lib tadqiq qildi. Olimning “pulning kelib chiqishi mehnat mahsulotlarini almashuvga ehtiyojning vujudga kelishi bilan bog‘liq”ligi xaqidagi mulohazalari diqqatga sazovor.

Sharq falsafasida, umuman odamlar ehtiyojlari va ularning qondirish vositalarini qidirish emas, balki har bir odamning shaxs sifatidagi zaruriy ehtiyojlarini tadqiq qilish va ularni qondirish muammolari muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shu ehtiyojlar tizimida odamning shunday fiziologik ehtiyojlari mavjudki, ular faqat harakat qilish, mehnat va yaratuvchanlik (ishlab chiqarish) bilan qondiriladi. Demak, inson ehtiyojlarining eng muhimi mehnat qilish (yaratuvchilik) ehtiyojidir, barcha ehtiyojlarni qondirish ham xuddi ana shu mehnatga bo‘lgan ehtiyojni qondirish orqali erishiladi. Sharq tadbirkorlik tafakkuri markazida inson va uning ehtiyojlari, ularni qondirish masalasining turishi bejiz emas⁷.

Sharq tadbirkorlik tafakkurining rivojlanishida Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» nomli tarixiy asari alohida ahamiyat kasb etadi. Asarda mehnatga to‘g‘ri haq to‘lash, mehnatni taqdirlash, boshqalar mehnatining qadriga yetish, moddiy manfaat, kasb-hunar egallash, kuchli ijtimoiy himoya masalalariga katta o‘rin berilgan. Bu asarda hunarmandlarga, savdogarlarga, dehqonlarga, chorvadorlarga alohida-alohida boblar bag‘ishlangan.

Yusuf Xos Hojibning fikricha, “Xizmat ahli o‘z mehnati natijasidan umidvor turadi. Umidini topmagan xodimning ko‘ngli sinadi”... “Xizmatiga loyiq taqdir ko‘rgan xodimning boshi ko‘kka yetadi”. Haqiqatan ham, iqtisodiy inqirozlar zaminida ish unumining pasayishida tadbirkorlarning o‘z mehnatidan naf ko‘rmaganligi yotadi. Olim davlat, el- yurt va uning boshlig‘i boyishi uchun, olamga uning nomi ketishi uchun qudratli davlatga ega bo‘lishi uchun u odamlarni, yumushchilarni boyitishi kerak, degan g‘oyani ilgari suradi. U yozadi: “Xodim

⁷ Xudoyqulov A.B. Jamiyat ijtimoiy rivojlanishida iqtisodiy ongning roli: Falsafa fanlari nomzodi. diss. – T., 2005. – B.47.

boyisa davlat, el boshlig'i boyiydi, el boshlig'ining kuchi xalq bilan. Shuning uchun ... xalq to'q bo'lsin"⁸.

Sharqda tadbirkorlik tafakkurining rivojlanishida ulug' bobokalonimiz, sohibqiron, buyuk sarkarda Amir Temurning iqtisodiy g'oyalari, u ishlab chiqqan va amalda yuritgan iqtisodiy siyosat mislsiz ahamiyatga ega. Amir Temur iqtisodiy g'oyalarining o'ziga xos ulug'vorligi shundaki, ular hayoliy emas, balki haqiqiy hayotdan kelib chiqqan va unda o'z ifodasini topgan. Shuning uchun ham bu g'oyalar ilgari surilganiga uzoq yillar o'tganiga qaramay, o'zining amaliy ahamiyatini yo'qotmay kelayotir. Amir Temurning iqtisodiy g'oyalari "Temur tuzuklari" asarida bayon etilgan. Unda sohibqironning mamlakatni boshqarish, uni rivojlantirib borish qoidalari, tamoyillari, yo'l-yo'riqlari o'z ifodasini topgan. Bu asarda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, tartibga solib borish, uni barqaror sur'atlar bilan yuksaltirib borishga oid qimmatli iqtisodiy tavsiyalar jamlangan.

Sohibqironning tadbirkorlik siyosati zahirida inson, uning manfaati, farovon va tinch hayot kechirish tashvishlari yotadi. U odamlarga kasb-hunar berish, ish bilan ta'minlash, tadbirkorlik faoliyati va tijorat ishlari bilan mashg'ul bo'luvchilarga yetarli sarmoya berish, yetarli uy-joylar qurib berish haqida qayg'uradi. «Temur tuzuklari» da quyidagilarni o'qiymiz: "Kasb-hunar va ma'rifat ahllariga saltanatim korxonalaridan ulush berilsin... Sarmoyasi qo'lidan ketgan savdogarga o'z sarmoyasini qaytadan tiklab olishi uchun xazinadan yetarli miqdorda oltin berilsin. Dehqonlar va raiyatdan qay birining dehqonchilik qilishga qurbi yetmay qolgan bo'lsa, unga ekin-tikin uchun zarur urug' va asboblarni tayyorlab berilsin"⁹.

Sohibqironning yuqoridagi tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini tashkil etishga doir tamoyillari innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish, tadbirkorlik pedagogikasini rivojlantirishda biz uchun muhim qo'llanma, tarixiy yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiladi. Qizig'i shundaki, bunday tadbirkorlik faoliyatiga doir

⁸ Yusuf Xos Xojib. Qutadg'u bilig. – T.: Akademnashr, 2015. – 556 b.

⁹ Temur tuzuklari / Forschadan A. Sog'unij va X. Karomatov tarjimasi. – T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 1991. – B.67.

qoidalar g'arbdagidan 300-400 yil ilgari bayon etildi, hayotiy tajribadan o'tdi.

Sohibqiron Amir Temur tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlab va tadbirkorlarni ulug'lab, ularning nafaqat o'zi balki jamiyat uchun ham katta nafi tegishini, inson doimo faol bo'lishini ta'kidlab, o'z tuzuklarida "Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy, tadbirkor va hushyor bir kishi, ming-minglab, tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir", deb ko'rsatadi¹⁰.

O'zbek xalqining ma'naviy merosida, uning madaniyati xalqaro miqyos kasb etishida ulug' shoirimiz, buyuk Alisher Navoiyning o'rni beqiyosdir. Biroq uning ilmiy merosi shu qadar boy va keng qirraliki, unda tadbirkorlik masalalariga doir ko'pgina qimmatli g'oyalar o'z ifodasini topgan. Buyuk mutafakkirning tadbirkorlika doir qarashlari "Mahbub ul- qulub" asarida bayon qilingan.

Hech kimga sir emaski, insoniyat doimo ijtimoiy adolat tamoyillari o'rnatilgan demokratik jamiyat qurishni orzu qilib keladi. Bugungi O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirishning maqsadi ham xuddi ana shu ezgu maqsadni ro'yobga chiqarishga qaratilgan. Alisher Navoiy ham o'zining butun ongli faoliyatini mazkur umuminsoniy maqsadga qaratgan edi. U asarlarida taqsimot masalalariga, ularning adolatli tashkil etilishiga e'tibor qaratdi, xususan, xizmatga yarasha taqdirlash (haq to'lash) masalasi diqqat markazida turdi. Xususan, yasovul misolida shunday deydi: "agar u xizmatiga yarasha haq olishi xayolida bo'lsa, u ota merosi va ona suti kabi haloldir"¹¹.

Bu yerda Alisher Navoiy tadbirkorlik bilan bog'liq ikkita g'oyani ilgari suradi: birinchidan, mehnatning miqdori va sifatiga muvofiq taqdirlanish fikri bo'lsa, ikkinchidan, mehnatga yarasha haq olish "ona sutidek halol" ekanligi haqidagi fikr uqtirilgan. Aytib o'tish kerakki, hozirgi davrda ham bu masala dolzarb bo'lib qolmoqda. Ko'rinib turibdiki, bu g'oya "qanday qilib bo'lmasin, tirikchilik o'tkazilsa bo'ldi-da", qabilidagi fikrga tamomila ziddir. Yoshlarda, barcha fuqarolarni tadbirkorlik bilan keng shug'ullanishi masalasi ilgari surilayotgan bir

¹⁰ Temur tuzuklari / Forschadan A.Sog'unuy va X.Karomatov tarjimasini. – T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 1991. – B.67.

¹¹ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. O'n to'rtinchi tom. – T.: «Fan», 1998. – B.15.

vaqtda buyuk shoirning yuqoridagi g'oyasi naqadar ahamiyatli ekanligini anglash qiyin emas.

Uning “Mahbub ul-qulub” asarini o'qib shunday xulosaga kelish mumkinki, Navoiy jamiyatning boyishida savdo-sotiq, tijorat ishlari muhim rol o'ynashi haqidagi tadbirkorlik g'oyasini markantilistlardan bir asr ilgariyoq asoslab bergan. “Savdogar, – deb yozadi alloma, yolg'iz foydani niyat qilmasligi”, “savdo qilib foyda topaman, deb ortiqcha kema surmasligi”, “mol va pul ko'paytiraman, deb jonsarak bo'lmasligi kerak”. “Savdogar boj-xirojni berish o'rniga o'z molini yashirib, o'z obro'sini to'kmasa yoki topgan-tutganini merosxo'rlari sotib sovurishi uchun to'plab qo'ymasa yoki biror yomon hodisa qo'zg'ash uchun sarflamasa, jamg'armasi yaxshi bo'ladi”.

Ko'rinib turibdiki, bu g'oyalarda tadbirkorlikning mazmuni chuqur mantiqiylik bilan bayon qilingan, ularda inson aql-zakovat bilan ish yuritishga da'vat etilgan. Alisher Navoiy tadbirkorlik tarbiyasini rivojlantirishga alohida xizmat qilgan. Navoiyning tadbirkorlik g'oyalari o'z ifodasini topgan 22 ta asaridan “Vasfiya” va “Munshaot” alohida qiziqish uyg'otadi. Bularda jamiyatning ijtimoiy iqtisodiy tuzilishi haqidagi Navoiyning asosiy fikrlari o'z ifodasini topgan. Boylik yaratishda mehnatning rolini ta'kidlab, olim “boylik faqat undan butun xalq foydalangandagina farovonlik keltiradi”¹², – deb hisoblagan. Uning fikricha, jamiyat boyishining manbai soliqlardir, shuning uchun u adolatli soliq tizimini yaratish zarurligini ko'rsatadi.

Alisher Navoiy iqtisodiyotning muhim jihati bo'lgan mulk masalasiga e'tiborni qaratadi. U mulkni to'g'ri tasarruf etish, resurslar, iqtisodiy shart-sharoitlardan unumli foydalanish, isrofarchilikka yo'l qo'ymaslik kerak, deydi. Ana shunda odamlar to'q va farovon yashashlari mumkinligi haqidagi iqtisodiy qarashni ilgari suradi. “Isrof qilish saxiylik emas, o'rinsiz sovurishni aqlli saxiylik demas. Halol molni kuydirganni devona, deydilar; yorug' joyda sham yoqqanni aqldan begona, deydilar”, – deb yozadi alloma.

A.Islomov, E.Egamovlar “Iqtisodiy ta'limotlar tarixi” nomli o'quv

¹² Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. O'n to'rtinchi tom. – T.: «Fan», 1998. – B.60.

qo‘llanmasida A.Navoiyning iqtisodiy qarashlarini shunday izohlaydilar: “Navoiy boylikni ikki yo‘l bilan topish mumkinligini aytadi: birinchi yo‘l – o‘z mehnati bilan boylik to‘plash va yig‘ish. Bunday boylikni u qo‘llab- quvvatlagan. Navoiy olingan boylikni uch qismga bo‘lib, ya’ni birinchi qismini ketgan harajatlarga, ikkinchi qismini o‘zining va oilasining ehtiyojlariga, uchinchi qismini esa aholining ijtimoiy manfaatlariga sarflashni tavsiya etgan. Boylik topishlikning ikkinchi yo‘li – bu o‘g‘irlik, ta‘magirlik va zo‘rlik hisobiga boylik orttirishdir. Navoiy bunday boylik orttirishga keskin qarshi chiqdi va qoraladi”¹³. Ko‘rinib turibdiki, Navoiy mehnat va kasb-hunarga nisbatan muhim ijtimoiy burch sifatida yondashish, pul topish yo‘lida vijdonan, halol mehnat qilish, uning mahsulini qadrlash, ishbilarmonlik va tadbirkorlik yo‘li bilan topilgan boylikni tejash, maqsadli sarflashni yuqori o‘ringa qo‘yadi.

Oilada tadbirkorlik masalalari Abdurauf Fitrat tomonidan yaratilgan “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asarida bayon etilgan bo‘lib, oilaviy hayotni yo‘lga qo‘yish, oila a‘zolarining ahil bo‘lishlari, oilaviy farovonlikni ta‘minlash shartlari kabi masalalarga e‘tibor qaratilgan. Asarda, shuningdek, oilada tadbirkorlik tarbiyasini yo‘lga qo‘yishda qo‘llaniluvchi uslublar borasida ham so‘z yuritiladi. Tushuntirish, hikoya qilish, namuna ko‘rsatish, rag‘batlantirish, bolani haqoratlash va qo‘rqitishdan saqlanish kabi uslublardan foydalanish oilada bolalarda tashabbuskorlikni tarbiyalashda samarali ekanligiga e‘tibor qaratiladi.

Muallifning qayd etishicha, “ertak orqali bo‘lsa ham ularga (bolalarga) doim fidokor odamlar haqida, muruvvatli va saxovatli, uddaburon, tadbirkor shaxslarning fe‘llari haqida, mo‘min va Allohdan qo‘rquvchi odamlar haqida hikoya qilib, yaxshi amallarning foydasini eslatib turish lozim. Devu pari, jin va cho‘lu biyobon alvastilari haqidagi qissalarni bolalarga ayt manglar. Yomon xulq va ishyoqmaslikning zararlari haqida bolalarga aytib berish va zehniga buni joylash ota-ona uchun ajibdur. Bunday hissa va hikoyalar vaqt o‘tishi bilan eslaridan chiqsa, ta’siri zehnlari qoladi va hayotlariga katta ta’sir ko‘rsatadi”¹⁴.

¹³ Islomov.V., Egamov E. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. – Toshkent, O‘zbekiston, 2003. – B.34

¹⁴ Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – T.: Ma’naviyat, 1998. – B.80-81.

Innovatsion iqtisodiyot rivojlanib borayotgan davrda tadbirkorlik oilaning daromadini ko'paytiradi, farovonligini ta'minlaydi. Bugungi kunda zamonaviy tadbirkorlikning eng muhim belgilari doimo yangilikka intilish, xom ashyodan unumli, oqilona foydalanish, iqtisodiy o'sishni ta'minlashdan iborat. Tadbirkorlik jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning muhim belgisi sifatida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlaydi. Har bir insonning shaxsiy qobiliyati, mehnat va kasb mahoratini namoyon qilish imkoniyatini beradi.

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab tadbirkorlikka katta e'tibor berilmoqda. Tadbirkorlikning jamiyat ijtimoiy hayotida tutgan o'rnini haqida ko'plab ilmiy-ijtimoiy qarashlar mavjud. Tadbirkorni tavsiflovchi shaxsiy sifatlarini aniqlash murakkab masalalardan biridir. Tadbirkor bir qator axloqiy me'yorlarni egallagan bo'lishi lozim. Ular jumlasiga burch hissi, muayyan tanlovga ega bo'lish, shaxsiy javobgarlik, mas'uliyat, halollik kabilarni kiritish mumkin.

Liberal-demokratik islohotlar davrida tadbirkorlik O'zbekistonning ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy taraqqiyoti va siyosiy tizimining ajralmas elementiga aylangan. Ammo tadbirkorlik faoliyatining barcha sohalari huquqiy me'yorlar bilan tartibga solinganligiga qaramay, amalda esa o'z yechimini kutayotgan kamchiliklar mavjud. Rivojlangan mamlakatlarda tadbirkorlik hal qiluvchi omil bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy madaniyat rivojlanishi hamda tadbirkorlik madaniyatining yuksalishi kuzatilgan. Tadbirkorlik madaniyati kishilarni xo'jalik faoliyatini ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy tomonlariga tegishli va ular nafaqat moddiy ishlab chiqarish jarayonlarida qatnashishi bilan, balki aniq iste'mol ehtiyojlari va ularga erishish bilan ham bog'liq. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun zarur huquqiy baza yaratildi. Kichik biznes vakillarining kasbiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularga boshlang'ich mablag' (startap va kapital) bilan ta'minlash uchun keng imkoniyat va imtiyozlar yaratilmoqda.

Eng asosiy vazifa sifatida o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikma va malakalari, kompetensiyalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Pirovard natijada o'quvchi-yoshlarda tadbirkorlik madaniyatini tarkib toptirishga erishiladi.

1.2.-§. Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirishning mazmuni

Bugungi kundagi iqtisodiy beqarorlik sharoitida ta'lim jarayoni iqtisodiy rivojlanishni talab qiladi. Hozirda dunyoda juda katta axborot oqimlari va yuqori texnologiyalar mavjud. Zamonaviy yosh avlod nafaqat yangi texnologiyalarni taqdim etishi va bilishi kerak, shu bilan bir qatorda ijtimoiy va ijodiy rivojlangan shaxslar bo'lishi kerak. Ushbu muammoni hal qilish uchun ko'plab maktablar ixtiyoriy ravishda kirishdi. Birinchi o'rinda texnologiya darslariga "Iqtisodiyot" kursi kirildi. Bugungi kunda maktabdagi imkoniyatlar bilan biz talabalar yetarli darajada bilimga ega emasmiz. Birinchi o'rinda iqtisodiy madaniyat, iqtisodiy bilim tushunchalari bilan ta'minlashimiz zarur. Shu bilan birga bunday qadriyatlarlarni shakllantirish muammosi paydo bo'ldi. Maktab o'quvchilarining bo'sh vaqtlarini kamaytirib ularni to'g'ri yo'lga boshlash uchun bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish uchun zarurat tug'iladi. Shundan kelib chiqadiki maktab o'quvchilarining iqtisodiy madaniyati shaxs bo'lib shakllanishi uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Texnologiya darslarida maktab o'quvchilarining iqtisodiy madaniyatini shakllantirish yanada samarali bo'ladi. Iqtisodiy madaniyat tushunchasi insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishda namoyon bo'ladi. Misol uchun insonning bajargan ishi uning qanday inson ekanligini ko'rsatib turadi. U nafaqat insonning tashqi qiyofasi balki ichki go'zalligidan ham darak beradi. Bu esa madaniyat tushunchasiga borib taqaladi.

Kundalik hayotda madaniyat tushunchasi uch ma'noda qo'llaniladi:

*Birinchi*dan, madaniyat jamiyat hayotining muayyan sohasini anglatadi (muzey, teatr, ishlab chiqarish sohalari va boshqalar).

*Ikkinchi*dan, madaniyat ma'naviy ehtiyojlar to'plami (umumiylik va xalqqa xos bo'lgan qadriyat va normalar).

Uchinchidan, madaniyat yuqori sifatni ifodalaydi (ya'ni "madaniy" inson ma'nosida o'zini tutib olgan ish joyida o'z o'rniga ega va boshqalar).

Shu bilan bir qatorda iqtisodiy madaniyat tushunchasi ham mavjud bo'lib, bu tushunchaga alohida to'xtalib o'tishimiz zarur. Jamiyatning iqtisodiy madaniyati qadriyatlar va motivlar tizimidir iqtisodiy faoliyat, iqtisodiy bilimlarning sifati va darajasi, shaxsning xatti-harakatlari va baholari, shuningdek, an'analar va normalar. iqtisodiy munosabatlar va xulq-atvor. Iqtisodiy madaniyat mulkchilik shakllariga alohida munosabatni talab qiladi, ishbilarmonlik muhitini yaxshilaydi.

Iqtisodiy madaniyat inson xo'jalik faoliyatini rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol jarayonida namoyon bo'ladigan ong va amaliy faoliyatning ajralmas birligidir.

Shaxsning iqtisodiy madaniyatida iqtisodiy tafakkur muhim o'rin tutadi, bu esa iqtisodiy hodisa va jarayonlarning mohiyatini bilish, o'zlashtirilgan iqtisodiy tushunchalardan to'g'ri foydalanish, aniq iqtisodiy vaziyatlarni tahlil qilish imkonini beradi.

Ishtirokchilarning ijtimoiy-psixologik sifatlaridan iqtisodiy faoliyat iqtisodiyotdagi xulq-atvor namunalarini tanlash va iqtisodiy muammolarni hal qilish samaradorligi ko'p jihatdan bog'liq. Shaxsning yo'nalishi ijtimoiy ahamiyatga ega qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlar bilan tavsiflanadi. Shaxsning iqtisodiy madaniyatini uning faoliyatdagi ishtiroki natijasini ifodalovchi shaxsiy xususiyatlari va fazilatlari majmuasini hisobga olgan holda ko'rish mumkin. Iqtisodiyot sohasidagi muayyan shaxsning madaniyat darajasini uning barcha iqtisodiy fazilatlari yig'indisi bilan baholash mumkin.

Darhaqiqat, iqtisodiy madaniyatga har doim ma'lum bir xalqqa xos bo'lgan turmush tarzi, an'analari va mentaliteti ta'sir qiladi. Shuning uchun, model, hatto undan ham ko'proq ideal sifatida iqtisodiyotning biron bir xorijiy modelini olish mumkin emas.

Iqtisodiy madaniyat bir qancha muhim vazifalarni bajaradi (1.2. 1-rasm):



1.2.1-rasm. Iqtisodiy madaniyatning asosiy funksiyalari.

1. Asl bo'lgan adaptiv funktsiya. Aynan shu narsa insonga jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlariga, iqtisodiy xatti-harakatlarning turlari va shakllariga moslashishga, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashishga imkon beradi. muhit, masalan, zarur iqtisodiy foyda ishlab chiqarish, ularni sotish, ijaraga berish, ayirboshlash va hokazolar orqali taqsimlash.

2. Moslashuvchan funktsiya bilan muvofiqlashtirilgan kognitiv funktsiya. Iqtisodiy madaniyatda mavjud bo'lgan bilimlar, uning g'oyalari, taqiqlari, huquqiy me'yorlari bilan tanishish insonga o'z iqtisodiy xatti-harakatlarining mazmuni va shakllarini tanlashda ishonchli yo'riqnomaga ega bo'lishga imkon beradi.

3. Tartibga solish funktsiyasi. Iqtisodiy madaniyat insonlar va ijtimoiy guruhlariga u tomonidan ishlab chiqilgan ma'lum standartlar va qoidalarni talab qiladi, bu odamlarning turmush tarziga, ularning munosabati va qadriyat yo'nalishlariga ta'sir qiladi.

4. Iqtisodiy faoliyat tajribasini avlodlar o'rtasida o'tkazib, avlodlar va davrlar o'rtasida muloqot qilish imkoniyatini yaratadigan tarjima funktsiyasi. O'quvchilar ongiga jamiyatimizning demokratik asosida iqtisodiy islohatlarni yanada rivojlantirish, ma'naviy-axloqiy, mehnat tarbiyasi


tushunchalarini shakllantirish, mehnat darslarida iqtisodiy tushuncha berish ishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Mehnat fanlar asosini chuqur va amaliy o'zlashtirishda, bolalarni mehnatga bo'lgan munosabatini ijodiy ish faoliyatida mustaqil shakllantirishda, fikr yuritishga o'rgatuvchi ilmiy vositalardan biridir. Ko'p asrlik tajriba shuni ko'rsatadiki, insonlarning mehnati tufayli cheksiz boyliklar va imkoniyatlarning yechiladi. Mehnat fani iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili hisoblanib, o'quvchilarning chuqur iqtisodiy bilimini mustahkamlaydi.

Hali-hanuz iqtisodiy mehnat tarbiyasida ilg'or umumbashariy va milliy g'urur, ularning tarbiyaviy harakteri o'z ifodasini topgani yo'q. Shuning uchun mehnat darslarida o'quvchilarning iqtisodiy faolligini oshirish va tadbirkorlik mehnat faoliyati ko'nikmalarini shakllantirish va kuchaytirish lozim.

Iqtisodiy tarbiyaning qator vazifalari mehnat darslarida amalga oshiriladi. Bu vazifalardan biri tadbirkorlik bo'lib, bu mahsulot ishlab chiqarish uni sota bilish, tushgan mablag'ni joy-joyiga sarflay olishdir. Bu tadbirkorlik talablarini mehnat darslari jarayonida darslar nechoglik qiziqarli va foydali tashkil etilsa, o'quvchilar shunchalik iqtisodiy bilimga va malakaga ega bo'ladilar. Avvalo bu darslarning muvommunini to'g'ri belgilab olish zarur.


Boshlang'ich sinflarda texnologiya darslari orqali iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratamiz (1.2. 2-rasm):



1.2. 2-rasm. Boshlang'ich sinflarda texnologiya darslari orqali iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirishning asosiy jihatlari.

Mehnat darslari bolalar uchun iqtisodiy bilimlar bilan tevarak-atrofdagi hayotni o'ziga xos tarzda bog'lovchi omil bo'lishi lozim.

Shuning uchun hozirgi kunda texnologiya darslarida quyidagi ikki iqtisodiy bilim ko'nikmalarini shakllantirish va tadbirkorlik ishlarini tashkil qilish lozim (1.2. 3-rasm):




1.2. 3-rasm. Texnologiya darslarida shakllantiriladigan iqtisodiy bilim ko'nikmalari

Masalan, o'quvchilarning mehnat darslarida materiallarni isrof qilmaslikni, ishning sifatliqligini, estetik jihatdan bejirim va chiroyli bo'lishiga e'tibor

berishlari kerak. Shu bois boshlang'ich sinflarda mehnat ta'limi va tarbiyasi jarayonida tadbirkorlik tushunchalarini, kelgusi mehnat faoliyatida muhim o'rin egallash ekanligi ko'rsatish, tushuntirish pedagog o'qituvchilarning oldida turgan muhim vazifalardan biri ekanligini ta'kidlash zarur.

O'quvchilarda mehnat ta'limi jarayonida tadbirkorlik tushunchalarining dastlabki bosqichlarini amalga oshirishda quyidagi vazifalarni bajarish ko'zda tutiladi (1.2. 4-rasm):



1.2. 4-rasm. O'quvchilarda mehnat ta'limi jarayonida tadbirkorlik tushunchalarini shakllantirish funksiyalari.

O'quvchilarda tadbirkorlik tushunchalarini shakllantirishda maktab, mahalla, oila va jamoatchilikni birgalikdagi harakati o'z-o'ziga xizmat qilishni tashkil etish, mahsulot sifati hamda turli ish turlari jarayonida mehnat natijalarining unumdorligi keskin o'sishda o'z ta'sirini ko'rsatadi. Chunki tadbirlarda erishilgan yutuqlar bo'yicha o'quvchilarning bajargan buyumlari maktab muzeylari yoki sinf burchagida namuna sifatida saqlash, ota-onalarga sovg'a sifatida taqdim etish o'quvchilarda amaliy mehnatda ish sifatini yanada oshirish, ijobiy natijalarga erishishda samarali ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchilarning bajargan ishlaridan maktab sharoitidan kelib chiqib har xil ko'rgazmalar va o'quvchilarning o'zlari uchun maktab bozori tashkil qilinsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Bunda o'quvchilar o'zlari bajargan ishlar natijalarini, diqqatga, e'tiborga sazovor bo'lganligini, o'zini mablag' bilan qisman ta'minlanganligini, o'zini boshqara olishini ko'rib, o'z mehnatiga va o'zgalar mehnatiga hurmat bilan qaraydi. O'quvchi ongida mehnatga muhabbat o'z samarasini topadi.

Natijada davlatimizning iqtisodini yuqori darajaga ko'tara oladigan, o'zining kasbini, hunarini hurmat qiladigan, jamiyatimizning rivojlanishida o'zini hissasini qo'sha oladigan barkamol avlodni tarbiyalashimizda yordam beradi.

Shunday qilib, o'quvchilar ongida iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish uchun avvalo ularga madaniyat, so'ng iqtisodiy madaniyat tushunchalarini singdirishimiz zarur. Undan so'ng iqtisodiy bilimlarini rivojlantiramiz.

O'quvchilarda iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirishda avvalombor biz maktab va oila hamkorligini yo'lga qo'yishimiz lozim. Zero, ta'lim oluvchilar zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarni ta'lim maskanlarida olganliklari bilan bir qatorda juda ko'p vaqtlari oila davrasida o'tkazishlarini hisobga olgan holatda oila bilan olib boriladigan hamoorlik ishlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Oilada milliy tarbiya jarayonining metodik asoslarini tadqiq etgan olim A.Muxsieveva o'z tadqiqotida oila tarbiyasini yo'lga qo'yish jarayonida tadbirkorlik hamda xo'jalikni oqilona boshqarish asosida bolalarda millatparvarlik, tejamkorlik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, uddaburonlik, ziyraklik, mas'uliyatlilik va tadbirkorlik kabi fazilatlarning tarbiyalanishiga erishish mumkinligini alohida ta'kidlab o'tgan: "Bozor munosabatlari bolalarga oila hamda ta'lim muassasalarida puxta iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyatni tashkil etish, shu jumladan, oila xo'jaligini yo'lga qo'yish ko'nikma va malakalarini shakllantirishni taqozo etadi. Iqtisodiy sohada olib borilayotgan islohotlar mavjud sharoitda bolalarning ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo'lishinigina emas, ayni vaqtda ro'zg'orda tejamkor, xo'jalikni yuritishda

tadbirkor bo'lishlariga erishishdek pedagogik vazifani ham ijobiy hal etish maqsadga muvofiqdir”.

Jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti, ota-onalar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorligini mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 19-iyundagi 175-son qaroriga ko'ra “Barkamol avlod tarbiyasida oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligi konsepsiyasi” qabul qilindi. Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi “Oila – mahalla – ta'lim muassasasi” hamkorligi Jamoat kengashi faoliyatiga asos solindi.

Mazkur qaror bilan, to'rt yo'nalishdan iborat “Oila – mahalla – ta'lim muassasasi” hamkorlik mexanizmini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasi, Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi “Oila – mahalla – ta'lim muassasasi” hamkorligi Jamoat kengashining hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari huzuridagi “Oila – mahalla – ta'lim muassasasi” hamkorligi hududiy jamoat kengashlarining namunaviy tarkiblari, shuningdek, Jamoat kengashining dastlabki yig'ilishi qarori bilan Jamoat kengashining Nizomi tasdiqlangan.

Iqtisodiy bilim tushunchalarini shakllantirishda o'quvchilarga oila hamda maktabda puxta tadbirkorlikka doir bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyatni tashkil etish, shu jumladan, tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish taqozo etadi. Tadbirkorlik sohasida olib borilayotgan islohotlar zamonaviy sharoitda o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo'lishinigina emas, ayni vaqtda ro'zg'orda tejamkor, xo'jalikni yuritishda tadbirkor bo'lishlariga erishishdek pedagogik vazifani ham ijobiy hal etish maqsadga muvofiqdir.

Umumta'lim maktabi va oila hamkorligiga asoslangan muhit o'quvchilarni tadbirkor, ishbilarmon, tejamkor qilib tarbiyalashga imkon beruvchi maskan hisoblanadi.

Umumta'lim maktabi va oila hamkorligini yo'lga qo'yish jarayonida tadbirkorlik boshqarish asosida o'quvchilarda millatparvarlik, tejamkorlik,

uddaburonlik, ziyraklik va tadbirkorlik kabi fazilatlarining tarbiyalanishiga erishish mumkin. Quyida ushbu xislatlardan tejamkorlikka alohida to'xtalib o'tamiz.

Tejamkorlik. Mazkur fazilatga ega bo'lish xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish sharoitida nihoyatda muhimdir. Tejamkorlik – moddiy predmet, xomashyo yoki tayyor mahsulotlardan maqsadga muvofiq, oqilona va tejab-tergab foydalanish, ularni isrof qilmaslikni ifoda etuvchi ijobiy fazilat bo'lib, o'sib kelayotgan avlodda mazkur sifatni tarbiyalash nafaqat ularning shaxsiy farovonligini ta'minlash, balki jamiyat taraqqiyotiga erishishning muhim shartlaridan biridir. Oila sharoitida bolalarda tejamkorlik fazilati, eng avvalo, ota-onalar tomonidan ularga ko'rsatilayotgan ibrat asosida shakllantiriladi. Ularning oila moddiy farovonligini ta'minlashda muayyan ahamiyatga ega vositalar, uy-ro'zg'or buyumlari, kiyim-kechak, asbob-uskunalar, jihozlarga bo'lgan ehtiyotkorona munosabatlari, o'rinli vaziyatlarda alohida ta'kidlarni qayd etishlari, tejamkorlik mavzusida davra suhbatlarini tashkil etishga ahamiyatni qaratishlari – bolalarda tejamkorlikning shakllanishini ta'minlaydigan ta'sirchan metodlar hisoblanadi.

Bolani juda kichkinaligidan narsalarni ehtiyot qilishga odatlantirish lozim. Tejamkorlik barcha vaziyatlarda ham foydali xususiyatga ega bo'lavermaydi. Ma'naviyatli, tadbirkor kishi tejamkorlikni ochko'zlik tarzida namoyon bo'lmasligiga erishadi. Bola oilaning umumiy mulkini yaratish, uni asrab-avaylash va ko'paytirish to'g'risida ko'proq qayg'ura olish layoqatiga ega bo'lishi kerak. Reja bilan ish tutish, uzoqni ko'ra bilish kabi eng muhim fazilatlarining asosi tejamkorlikdadir.

Ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga asoslangan tejamkorlik dunyoparastlik, ochko'zlikdan tubdan farq qiladi. Ota-onalar va o'qituvchilar o'quvchini juda yoshligidan boshlab shu tariqa reja bilan ish tutishga o'rgatishlari kerak. Ota-onalar oilaning zarur ehtiyojlarini vaqti-vaqti bilan muhokama qilishlari va ularni qondirish yo'llarini belgilashlari kerak. Chunonchi, bola, aytaylik, televizorning eskirib ketganligini, uni tuzatish yoki yangisini sotib olish kerakligini anglay olsa, u o'z ehtiyojlarini qondirish istagini muayyan muddatga unutadi. Tejab-tergab

ro‘zg‘or yuritadigan ota-onalar uchun oilada arziyas, keraksiz buyum bo‘lmaydi.

Tejamkorlik shaxsning o‘y-fikrlari, xatti-harakatlari va muomalasida namoyon bo‘ladi. Juda g‘amxo‘r va lekin tejab-tergab ish tuta olmaydigan kishilar ham bo‘ladi. Bolalarda tejamkorlik fazilatini shakllantirishda nasihatgo‘ylik ijobiy natija bermaydi.

Bolani faqat o‘z oilasidagi buyumlargagina emas, balki boshqa kishilarga tegishli bo‘lgan buyum, mulkka nisbatan ham shunday munosabatda bo‘lishga o‘rgatish zarur. Shu bois hech vaqt bola ko‘cha, bog‘ yoki madaniy dam olish imkoniyatini beruvchi muassasalardagi buyumlarga nisbatan beparvo munosabatda bo‘lishga yo‘l qo‘ymaslikka o‘rgata borish lozim.

Tadbirkorlik fazilati qisqa muddat ichida bitkaziladigan bitta topshiriqdan ko‘ra ancha ko‘p vaqt talab qiladigan topshiriqlarni bajarish uchun zarurdir. Bolaga yetti-sakkiz yoshidan boshlaboq, bajarilishi uzoq vaqtni talab qila boradigan vazifalarni topshirish kerak, masalan: qo‘y-mollarni boqib kelish, polizga suv quyish, hovli yuzini tartibli saqlash, mol-qo‘ylarga yemish berish, ukasiga qarash kabi vazifalar topshirish kerak.

Pul sarf-xarji sohasi ayniqsa muhimdir. Har bir oilaga bolaning o‘z ehtiyojlari uchun, ayrim hollarda esa oilaning umumiy ehtiyojlari uchun pul sarf qilishiga birmuncha erkinlik berish lozim. Buning uchun oyda bir yoki bir necha marta muayyan miqdorda pul berish, bu pulning nimalarga harajat qilinishi kerakligini aniq belgilab berish kerak bo‘ladi. Bunday harajatlarning ro‘yxati, bolaning yoshiga yoki oilaning qurbiga qarab, turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, 14 yashar bola uchun quyidagicha ro‘yxat tuzish mumkin: daftar sotib olish, avtobus puli, maktab harajatlari, butun oila uchun non, sut sotib olish, uning o‘zi va ukasiga muzqaymoq puli. Bola katta bo‘lgan sari, bunday harajatlar ro‘yxati ancha mas’uliyatliroq va murakkabroq bo‘lib borishi lozim. Shu bilan birga o‘g‘il yoki qiz bola topshiriqni qanday bajarayotganligi, xarajat qilish uchun berilgan erkinlikdan qanday foydalanayotgani (suiste‘mol qilmayaptimi va h.k.lar)ni kuzatib bormoq kerak. Ba‘zan bunday xatolar pulning nimaga sarf qilinishi lozimligi xususida to‘g‘ri ko‘rsatma bermaslikdan kelib chiqadi, lekin bolaning

o'z huquqlari va imkoniyatlariga yetarli darajada jiddiy qaramaydigan hollar ham bo'ladi. Bunday hollarda u bilan gaplashib qo'ya qolish, xatolarini ko'rsatib berish va ularni tuzatishga maslahat berish kifoyadir. Har doim tekshirib turish bilan, ayniqsa doimo gumonsirash bilan bolani bezor qilish yaramaydi. Bolaning o'ziga topshirilgan vazifaga qanday qarayotganligini ko'ra bilish kerak, xolos.

1.3.-§. O'quvchilarda iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirishning amaldagi holati

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilk iqtisodiy tasavvurlarni shakllantirishda maktabga tayyorlov davri bolalari bilan sinovdan samarali o'tgan ta'lim-tarbiyaviy ishlar mazmuni, ularning tashkiliy shakl, usul, vositalari saqlab qolinishi, o'quvchilarga ilk iqtisodiy ta'lim-tarbiya o'quv muassasasining o'quv reja, fan dasturi va ta'lim mazmuniga iqtisodiy mavzular uyg'unlashuvida ikki yo'nalishda tashkil etiladi (1.3. 1-rasm) :



1.3. 1-rasm. Iqtisodiy mavzular uyg'unlashuvining yo'nalishlari.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilk iqtisodiy tasavvurlarni shakllantirishning mazmuni, shakl, usul, vositalari, umumiy o'rta ta'lim maktablarining ta'lim oluvchilarida shakllangan ilk iqtisodiy tasavvurlarni pog'onama-pog'ona, uzviy davom ettirish bilan davom ettiriladi.

1-sinf o'quv fanlari mazmunini iqtisodiy mavzularda uyg'unlashtirishda, umumiy o'rta ta'lim maktablar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari, bolalar yosh xususiyati, psixik rivojlanish imkoniyatlari, tayanch dasturi asosida egallagan iqtisodiy bilim va ko'nikmalar darajasi to'liq inobatga olinishi zarur. Faoliyatning ta'limiy shakli 1-sinf o'quv reja va fan dasturiga ko'ra "Texnologiya", "Matematika", "O'qish va nutq o'stirish", "Ona tili", "O'zbekiston Konstitutsiyasini o'rganish", "Atrofimizdagi olam", "Tasviriy faoliyat", "Odobnoma" fanlari, ijodiy faoliyat, nutq faolligiga qaratilgan dars mavzulari mazmunini iqtisodiyot bilan uyg'unlashtirish orqali tayyorlangan mujassam darslar matni asosida tashkil etiladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi iqtisodiy bilimlarni qaysi o'quv fani mazmuniga uyg'unlashtirish mumkinligi, mujassam dars maqsadi, unda o'quvchilar egallashi zarur bo'lgan iqtisodiy bilim, ko'nikmalarni aniq bilishi zarur. Bugungi o'quvchi – kechagi bog'cha tarbiyalanuvchisi ekani va o'quvchilar kontingenti maktabga qadar uyda, oilada tarbiyalangan bolalarni ham o'z ichiga olishi nazarda tutilsa, o'qituvchidan ularga alohida, differentsial yondashish talab etiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan tashkil etiladigan darsdan tashqari tadbirlar maktabga tayyorlov davri bolalari bilan tashkil etilgan faoliyatning bardavomligini saqlashi, dars va darsdan tashqari topshiriqlari o'quvchilar yoshiga moslashtirilishi zarur. O'quvchilar bilan suratlarga qarab hikoyalash yoki rasmning iqtisodiy mohiyatini tushuntirish, iqtisodiy mazmunda hikoya tuzish yoki shu mavzuda ertak o'qish, so'ngra uni jamoa bo'lib tahlil qilish asosida mavzuiy rasmlar chizdirish, ko'ngilochar bayram ertaliklari, sog'lom raqobat ruhini tarbiyalovchi intellektual bahs-munozara, musobaqa va o'yinlar tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bularga (1.3. 2-rasm):



- tarbiyaviy tadbirlar jarayonida mavzu yuzasidan ta'lim muassasasiga yaqin hududga, kutubxona, muzey, ko'rgazma zallari kabi madaniy maskanlarga ekskursiya va sayr-sayohatlar uyushtirish;



- joylarda amaliy mashg'ulotlar tashkil etish, tarbiyaviy soatlarda bolalarning turli kasb egalari, taniqli shaxslar, ishbilarmon, tadbirkorlar, ota-onalar bilan uchrashuvi va jamoaviy suhbatlarini tashkil etish;



- umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim oluvchilarning ilk iqtisodiy ta'lim- tarbiyasini tashkil etishda mehnat darsining amaliy qismida ijodiy ishlarni bajarish va ularni kattalar uyushtirgan ko'rgazmalarga taqdim etish kabi faoliyatlarni tashkil etish;



- yonma-yon xududda joylashgan umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-8 yoshli o'quvchilari o'rtasida iqtisodiyotga oid mazmundagi viktorina, bahs va turli musobaqalar tashkil etish kiradi.

1.3. 2-rasm. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan tashkil etiladigan darsdan tashqari tadbirlar

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilk iqtisodiy tasavvurlarni shakllantirishda ta'lim-tarbiya mazmunidagi davomiylikning o'zi yetarli bo'lmay, bunda o'qituvchilar, shuningdek, oila, ya'ni ota-onalarning uzviy pedagogik hamkorligi ham muhim sanaladi.

Bugungi kunda farzandlari ta'lim yoshida bo'lgan ota-onalarning har ikkisi ham mehnatda band bo'lgan oilalar ko'pchilikni tashkil etadi. Bunday oilalarning 6-8 yoshli farzandlari kunning deyarli katta qismini umumiy o'rta ta'lim maktablari, boshlang'ich ta'lim-tarbiya markazi, bog'cha-maktab majmuasi yoki shunga o'xshash ta'lim maskanlarining ko'pi uzaytirilgan guruhlarida o'tkazadilar.

Faoliyatning tarbiyaviy shakli – o'qituvchi, to'garak rahbarlari ota-onalar hamkorligida bolalarning darsdan tashqari faoliyatini mazmunli tashkil etishni yo'lga qo'yish ishlarini o'z ichiga oladi. Bolalarga iqtisodiyotga oid bilim, ko'nikma beruvchi tarbiyaviy tadbirlar va rasm, turli hunarmandlik faoliyatlarini

tashkil etish, bolalar yaratgan ijod mahsullarini ijodiy ishlar ko'rgazmalari, turli taqdimot marosimlariga taqdim etilgan ishlarni rag'batlantirishda birgalikda harakat qilish samaralidir. Bunday uzviy pedagogik hamkorlikni quyidagicha amalga oshirish mumkin:

- ta'lim muassasasida pedagoglar, ota-onalar, faol yoshlar ijodiy hamkorligida bolalar ijodiyotini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ijodiy ishlar ko'rgazmalarini tashkil etish;
- bolalar tomonidan tayyorlangan mahsulotlarni ta'lim muassasasi va undan tashqarida ko'rgazmalarga taqdim etishga ko'maklashish;
- iqtisodiy mavzuda ta'limiy, voqeaband-ijroli, ishchan o'yinlar, intellektual musobaqalar tashkil etish;

Kuzatuvlar umumiy o'rta ta'lim maktablarda tahsil olayotgan kichik yoshdagi o'quvchilarning maktab hayotiga tez moslashib ketishida iqtisodiy ta'lim-tarbiya muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga maktabda o'zini tutish, axloq-odob qoidalarini to'g'risida umumiy tushuncha berilsa-da, maktab oshxonasida sotilayotgan ovqatning narxi, o'zi sotib olishni istayotgan narsalarni qaerdan, qanchaga sotib olishi mumkinligi to'g'risida ma'lumot berilmaydi. Umumiy o'rta ta'lim maktablariga qadam qo'ygan bolaning bu borada batafsil bilim va tasavvurga ega bo'lishi maktab ma'muriyati uchun ham, ota-onalar uchun ham birdek qulaylik tug'diradi.

O'quvchilarni iqtisodiy bilim tushunchalarini singdirilgan holda tadbirkor va vijdonli kishilar qilib tarbiyalash ota-onalar va o'qituvchilar o'quvchilarni tadbirkor va vijdonli kishilar qilib tarbiyalash bilan ularni O'zbekistonning innovatsion fikrlashga qodir fuqarolari qilib ham tarbiyalashlarini esda tutishlari lozim.

O'quvchilarni iqtisodiy bilim tushunchalarini shakllantirishda maktab va oila hamkorligi asosida o'quvchilarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashda quyidagilarni inobatga olish maqsadga muvofiqdir:

1. O'quvchi qobiliyatini oldindan baholash. O'quvchining muayyan faoliyat turini qay darajada o'zlashtira olishini ota-ona oldindan aniqlashi zarur.

2. O‘quvchining mehnatini uning kuchiga yarasha taqsimlash.

Me'yordan ortiq talab uning toliqishi, o'ziga nisbatan ishonchsizlik hissining ortishi, ishdan bo'yin tovlashiga olib keladi.


3. Iste'dodni rag'batlantirish. O'quvchining xatti-harakatiga ota-onaning munosabati – mayl va qiziqishlarini munosib baholash, ularga dalda berish, rag'batlantirish o'quvchilarda muayyan faoliyatga qiziqishni orttiradi.

4. Talabchanlik. Ota-onalar va o'qituvchilarning o'quvchining muayyan harakatni bajarishi davomida ishni sinchkovlik bilan puxta, vijdonan bajarishi, asbob-uskunalar, mehnat qurollariga ehtiyotkor, xom ashyoga nisbatan tejamkor bo'lishni talab etishi lozim.

O'quvchilarning tadbirkorlik faoliyatida ruhiyatidagi tetiklik; o'z mehnati natijasidan zavqlanish; ko'proq foyda ko'rishga intilish; bozor qonun-qoidalarini tushunish; “tadbirkor” bo'lishga intilishi va g'ururlanish kabilar alohida ahamiyatga ega. Bunday bo'lajak tadbirkorlarga xos ruhiy va ichki kechinmalar ularda tadbirkorlik ko'nikmalari bilan bog'liq tarzda rivojlanadi.


Ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda o'quvchilar: real voqelikda o'zlari duch kelgan muammolarni yechishda mustaqil bo'lishlari; maqsadli ish olib borishlari; yaratilgan vaziyatdan o'rinli foydalana bilishlari muhimdir. Bunday fikrdagi o'quvchilarda tadbirkorlikka moyillik borligi aniqlandi va bu sifatlarni rivojlantirish imkoniyatlari belgilab berilishi lozim degan xulosaga keldik. Buning uchun: o'quvchilarga tadbirkorlikning mazmun-mohiyatini anglatish; ularni tadbirkorlikka oid yangiliklardan muntazam xabardor qilish; tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirish va uni takomillashtirishga o'quvchilarni o'rgatib borish.

Umumta'lim maktabi va oila hamkorligida o'quvchilarni iqtisodiy bilim tushunchalarini shakllantirishda tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashda quyidagi vazifalarni hal qilish lozim (1.3. 3-rasm):



1.3. 3-rasm. O'quvchilarni iqtisodiy bilim tushunchalarini shakllantirishda tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashdagi vazifalari

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'quvchilarda tadbirkorlarga xos umumiy va ishbilarmonlik sifatlarini shakllantirish uchun ularda quyidagilarni tarkib toptirish lozim(1.3. 4-rasm):



1.3. 4-rasm. O'quvchilarda tadbirkorlarga xos umumiy va ishbilarmonlik sifatlar.

Keyingi vaqtlarda tadbirkorning shaxsi, uning ijtimoiy qiyofasini o'rganishga qiziqish ortmoqda. Insonni ijtimoiy, ruhiy va moliyaviy xatarga borishga nima

majbur etadi? Bu savolga ko‘plab mutaxassislar ilmiy asoslangan tarzda javob berishga intilmoqdalar. Bu sohada amalga oshirilayotgan tadqiqotlar ko‘lami kengaymoqda. Tadbirkorlikni ilmiy asosga qo‘yish va tadbirkor shaxsi, uning xususiyatlarini chuqurroq o‘rganib, yangi avlod tadbirkorlarining shakllanishiga yordam berish harakati tezlashmoqda. Bunga tadbirkorlikni iqtisodiy-ijtimoiy hayotdagi ahamiyatining ortib borishi; tadbirkorlikning ommaviy tus olishi; xalq iste’moli mahsulotlariga bo‘lgan talabning oshishi; tadbirkorlikda inson imkoniyatidan foydalanish darajasining yuqoriligi; matbuot, umuman ommaviy axborot vositalarning tadbirkorlar faoliyatini yoritishga bo‘lgan intilishining kuchayishida namoyon bo‘lmoqda.

Tadbirkorlikni rivojlanishiga asos bo‘ladigan omillardan biri umumta’lim maktabi va oila hamkorligida o‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojning kuchayayotganligidir.

Tadqiqotchi M.Rasulov tadbirkorlik faoliyatini tanlashda quyidagi omillarga e’tibor qaratish zarur deb hisoblaydi: “ma’lumoti, uning xarakteri, qarindoshlarining tasiri, oldingi xizmati, jamg‘arilgan hayotiy tajribasi, shaxsiy hayotida yuz bergan voqealar, o‘z ishiga munosabati, hayotiy rejalari va oilaviy ahvoli”¹⁵. O‘quvchilarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashga ta’sir etuvchi bolaligidagi oilaviy muhit ahvolini o‘rganish natijalari ancha sermazmun bo‘lib, ko‘pchilik tadbirkorlarning ota-onalari hunarmand-tadbirkor bo‘lganliklari aniqlandi. Ham otalari, ham onalari tadbirkor bo‘lgan oilalar ko‘pchilikni tashkil etadi. Ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilarning tadbirkorlik faoliyatini tanlashlarida vorisiylikka asoslangan, ota-onalarning ta’siri katta. Ota-onalarning o‘z ishiga munosabati bilan tadbirkorlik sohasidagi muvaffaqiyati o‘rtasidagi aloqadorlikni yorituvchi hamda tahlil qiluvchi ma’lumotlar ko‘plab uchraydi. Tadbirkorlar o‘zlarining faoliyatlari, maqsad sari intilishlariga ko‘ra katta obro‘-e’tiborga egadirlar. Ular o‘z ishlariga sadoqatli, fidoiy kishilardir. Tadbirkorlik harakatining muvaffaqiyatini ta’minlash, yosh tadbirkorlar o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadlariga

¹⁵ Rasulov M. Bozorni ijtimoiy tartiblashtirish. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, Moliya, 2003. – 73b

erishishlari uchun barcha imkoniyatlarini safarbar qilishga ularni undovchi ma'lumotlar keng ommalashtirilmoqda. Tadbirkorlikka bo'lgan ijobiy munosabat bu faoliyat egasining hayoti, turmush tarzi va shaxsiyatiga ta'sir ko'rsatadi. Haqiqiy tadbirkorning kundalik faoliyati firmalar, korxonalar, savdo rastalari bilan bog'liq bo'lib, foyda olish ular faoliyatining asosiy maqsadiga aylanadi va bu sohadagi muvaffaqiyatigina ularni qanoatlantiradi.

O'quvchilarni iqtisodiy bilim tushunchalarini shakllantirishda oilaviy biznes, odatda, oiladagi mavjud vositalar asosida tashkil etilgan va uning qaysidir a'zosi boshchiligida qolganlarini vazifasi belgilab qo'yilgan kichik korxonadir. Ma'lumki, zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda individual mehnat faoliyati bandlik muammosini yechishning samarali usullaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun u faqatgina oilaviy shart-sharoitni yaxshilash vositasi hisoblanmay, balki iqtisodiyotni rivojlantirish mexanizmi sifatida ham namoyon bo'ladi.

O'quvchilarni iqtisodiy bilim tushunchalarini shakllantirishda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish maktab davridan boshlab yosh avlodning mehnatga nisbatan motivatsiyasini shakllantirishning ijtimoiy maqbul yo'llaridan biri sifatida gavdalanadi. Shu bois, o'quvchilarni ijtimoiy foydali mehnat faoliyatiga jalb etish hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitining hal etilishi mumkin bo'lgan nozik muammolaridan biridir¹⁶.

O'quvchilarni iqtisodiy bilim tushunchalarini shakllantirishda oilaviy tadbirkorlikda o'quvchining ijtimoiylashuvi ota-ona ta'siri doirasida ro'y berganligi bois, ulardagi iste'molchilik munosabatlari ko'lami kichik darajada bo'lishi mumkin. Shuningdek, ijtimoiylashuv jarayonida mehnatsevarlik, mas'uliyatlilik, muvaffaqiyatga erishish motivi kabi tushunchalarni anglanilishi o'quvchilardagi ijobiy shaxsiy sifatlarning shakllanishiga asos bo'ladi. O'quvchilarning "biznes"dagi ishtiroki ta'lim olishga xalaqit bermaydi, aksincha, ularga pul ishlab topish imkoniyatini yaratadi.

O'quvchilarni iqtisodiy bilim tushunchalarini shakllantirishda oilaviy

¹⁶ Hayitov O.E., Yakubov I.I. Oilaviy tadbirkorlik // «Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va jamiyatni yangilashning ustuvor yo'nalishlari» mavzusidagi universitet yosh olimlari, magistrantlar va talabalari ilmiy-amaliy anjumani ma'ruzalar to'plami (28-29 aprel 2006 yil). – T.: TDIU, 2006. – B. 87b

tadbirkorlik turli xil darajada sivilizatsiyalashgan tadbirkorlikning shakllanishiga turtki beruvchi ijtimoiy muhitni yaratishi mumkin. Ayrim hollarda, oilaviy tadbirkorlik kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlariga taalluqli iqtisodiy omillarning ustunliklari va kamchiliklarini qiyosiy tahlil qilish imkoniyatini ham beradi¹⁷.

Odatda, o'quvchilarni iqtisodiy bilim tushunchalarini shakllantirishda oilaviy tadbirkorlik kichik biznes tarmoqlaridan biri sanalib, asosan uning shakllantirilishi kapital qo'yilmasi mavjudligini talab etmaydi. Ya'ni u oilaning uyi (bino), shaxsiy transporti, tomorqasi kabi mavjud barcha resurslaridan maksimal darajada foydalanish imkoniyati demakdir. Xususan, bunda biznesning yaxlitligi maxsus darajadagi ishlab chiqarish binosini talab etmasdan, yashash joyidan foydalanish imkoniyatini beruvchi mehnat faoliyati ko'lamidan iborat bo'ladi. Natijada, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda lozim bo'ladigan ishlab chiqarish vositalari uy xo'jaligining mehnat vositalari bilan birlashishi mumkin. Bunday firmalar mahsuloti uchun bozor qiymati (narx)ning shakllantirilishida jonli mehnatning ulushi juda katta, chunki unda barcha oila a'zolarining mehnat resurslaridan maksimal darajada foydalanilgan bo'ladi.

O'quvchilarni iqtisodiy bilim tushunchalarini shakllantirishda oilaviy tadbirkorlik faoliyatida muvaffaqiyatga erishish – maqsadga intilishdagi matonat, tavakkalchilikka tayyorlik, o'ziga ishonchlilik, moslashuvchanlik, quvvatlilik, shaxsiy javobgarlik hissi, kirishuvchanlik, turli ma'lumotlarni tez yig'ish va ulardan foydalanish qobiliyati kabi shaxsiy sifatlar majmuasining shakllanishiga bog'liqdir.

I bob yuzasudan xulosalar

O'quvchilarni iqtisodiy bilim tushunchalarini texnologiya darslarida shakllantirish texnologiyasi oilaviy tadbirkorlik faoliyatida muvaffaqiyatga erishish – maqsadga intilishdagi matonat, tavakkalchilikka tayyorlik, o'ziga ishonchlilik, moslashuvchanlik, quvvatlilik, shaxsiy javobgarlik hissi,

¹⁷ Hayitov O., Ochilova G. Tadbirkorlik psixologiyasi. – O'quv qo'llanma. 1-kitob. Oliy o'quv yurtlari magistratura bosqichi talabalari uchun // Prof. V.M.Karimovning umumiy tahriri ostida. – T.: «Fan va texnologiya», 2008. – B.118.

kirishuvchanlik, turli ma'lumotlarni tez yig'ish va ulardan foydalanish qobiliyati kabi shaxsiy sifatlar majmuasining shakllanishiga bog'liqdir.

Sharq falsafasida, umuman odamlar ehtiyojlari va ularning qondirish vositalarini qidirish emas, balki har bir odamning shaxs sifatidagi zaruriy ehtiyojlarini tadqiq qilish va ularni qondirish muammolari muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir insonning shaxsiy qobiliyati, mehnat va kasb mahoratini namoyon qilish imkoniyatini beradi.

Hozirgi vaqtda maktab va oila oldida turgan asosiy vazifa nafaqat ta'lim berish, balki o'quvchi shaxsini shakllantirish, maqsadli kasbga yo'naltirish va hayotiy faoliyatga tayyorlashdan iborat bo'lmog'i lozim. Maktab o'quv rejalari va ularni amalga oshirish shakllari akademik tavsifga ega emas, ta'lim-tarbiya mazmunini ko'proq real hayot bilan aloqador bo'lishini taqozo etadi. Buning uchun oila va maktab hamkorligiga alohida yondashuv talab etiladi.

II BOB. BOSHLANG'ICH SINIF TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING IQTISODIY BILIM TUSHUNCHASINI SHAKLLANTIRISHNING SHAKL, USUL VA METODLARI

2.1.-§. Xorijiy mamlakatlarning o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish tajribasi

Xorijiy mamlakatlarda hozirgi vaqtda o'quvchilarda tadbirkorlik sifatlarini shakllantirish muammosiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Rivojlangan, jumladan, AQSh, Angliya, Fransiya kabi davlatlar pedagoglari va tadbirkorlari o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishda oila va maktab tarbiyasining potensial imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayotganligini alohida e'tirof etishadi. Ko'pchilik tadbirkorlar ishchi-xodimlarda zamonaviy sharoitda muhim ahamiyat kasb etuvchi analitik va tizimli fikrlash, tashabbuskorlik va kommunikabellik, qarorlar qabul qilish va mas'uliyatlilik sifatlarining mavjud bo'lishini talab etishadi. Mazkur sifatlar oila bilan hamkorlikda maktab davridanoq shakllantirilishi zarurligi e'tirof etiladi. Biroq, bugungi maktab iqtisodiy hayotimizda bugun va ertaga zarur bo'ladigan kadrlarga qo'yiladigan talablarni o'zida to'liq aks ettirmaydigan o'quv dasturlariga tayanib ishlab kelmoqda.

Hozirgi vaqtda maktab va oila oldida turgan asosiy vazifa nafaqat ta'lim berish, balki o'quvchi shaxsini shakllantirish, maqsadli kasbga yo'naltirish va hayotiy faoliyatga tayyorlashdan iborat bo'lmog'i lozim. Maktab o'quv rejalari va ularni amalga oshirish shakllari akademik tavsifga ega emas, ta'lim-tarbiya mazmunini ko'proq real hayot bilan aloqador bo'lishini taqozo etadi. Buning uchun maktab va oila hamkorligiga alohida yondashuv talab etilmoqda. Shu sababli rivojlangan davlatlardagi o'quvchilarni tadbirkorlikka o'rgatish, ularda ishbilarmonlik sifatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan tajribalarini tahlil etish va milliy tarbiya tizimiga joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi¹⁸.

Bugungi kunda ham AQShda "Karera uchun ta'lim" konsepsiyasi yetakchi

¹⁸ Davies H. A review of enterprise and the economy in education. HM Treasure, 2002. URL: www.dfes.gov.uk

o‘rin egallamoqda. Mazkur konsepsiyada umumiy o‘rta ta‘limdagi barcha kurslar mazmunini majmuaviylik tamoyili asosida tashkil etish va o‘quvchilarni keng tarmoqli, umummehnat va politexnik tayyorgarlikdan o‘tkazishni ko‘zda tutadi. “Karera uchun ta‘lim” konsepsiyasi dasturlari asosida zamonaviy korxona va muassasalar xodimlari uchun zarur kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar hamda shaxsiy sifatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish borish maqsadi yotadi. Yangi mehnat sharoitlariga moslashuvchan bilim va ko‘nikmalarni mustaqil egallashga ko‘nikmasini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalarga asosiy e‘tibor qaratiladi. O‘tgan asrning 90-yillaridayoq maktab va ishlab chiqarish o‘rtasida aloqalarni yo‘lga qo‘yish masalasi qo‘yilgan edi. Maktab real voqelikka e‘tibor qaratib, mahalliy hokimiyat, ijtimoiy institutlar bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yishga katta e‘tibor qaratadi, o‘quvchilarni maqsadli kasbga yo‘naltirishni amalga oshiradi¹⁹.

AQShda “Junior Achievement Inc” notijorat tashkiloti tomonidan o‘quvchilarni tadbirkorlikka tayyorlash, mustaqil biznes sohasini tanlashga yo‘naltirish maqsadida dastur ishlab chiqilgan va amaliyotga keng tatbiq etilgan. AQShda milliy hududiy markazlar tizimi orqali “Junior Achievement” dasturida umumta‘lim maktablarining 4 mln. dan ortiq o‘quvchisi ishtirok etadi. Dunyoning 112 ta davlatidan mazkur dastur doirasida qariyb 2 milliondan ortiq o‘quvchi qamrab olingan.

“Junior Achievement” dasturi har bir o‘quvchini tadbirkorlik bilan shug‘ullanishning fundamental asoslarini egallashi, tadbirkorlik faoliyatiga doir amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishiga e‘tibor qaratadi. Shuningdek, dastur doirasida o‘quvchilar maktabni tugatgach, korxona xodimlariga aylanishi, mehnat bozoridagi raqobat bilan to‘qnashishi, tadbirkor bo‘lish imkoniyatini qo‘lga kiritishga yo‘naltiriladi. Shuni alohida qayd etib o‘tish lozimki, AQShda “Junior Achievement” dasturini amalga oshirishda 76 ming ko‘ngillilar yordam beradi. Ular maktablarga kelishadi va o‘zining biznes yuritish faoliyatiga doir o‘quv

¹⁹ Электронный журнал «Junior Achievement Incorporated». – [http:// www.jaintl.org/](http://www.jaintl.org/)

materiallari bilan o'rtoqlashishadi. Ko'ngillilar tarkibiga korxonalarning mutaxassisleri, tadbirkorlar, ota-onalar, talabalar va nafaqaxo'rlar kiradi. Shuning uchun ularning ish vaqti oyiga 10 soatdan oshmaydi. Bu "Junior Achievement" tizimining muhim ta'limiy resurslaridan biridir²⁰.

Mazkur dasturning muhimligi jamiyat tomonidan yuqori baholanib, "Junior Achievement Incorporated" (turli xayriya, investitsion fondlarni o'z ichiga oluvchi AQShdagi 200 dan ortiq korporatsiyalar) milliy shtab- kvartirasining homiylari sonining ko'pligi ham buni tasdiqlaydi.

"Formative Evaluation" Amerika assosatsiyasi tomonidan o'tkazilgan ta'lim sohasidagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, "Junior Achievement" dasturi bitiruvchilari tengdoshlariga qaraganda tadbirkorlikni tashkil etish tamoyillarini ko'proq tushunishi va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga yetarlicha tayyorgarlikka egaligi bilan ajralib turadi.

"Maktab kompaniyasi" (Student Company) AQShda yuqori sinf o'quvchilari uchun dastlabki va asosiy dastur sanaladi. "Maktab kompaniyasi" faoliyatidagi ishtiroklari hisobiga har yili millionlab o'quvchilar biznes va shaxsiy hisob yuritishni o'rganishadi. O'quvchilar kredit kartalaridan foydalanishni o'rganishadi, reklama va tijoriy faoliyat ko'nikmalarini egallashadi, kichik korxonani boshqarishni o'zlashtirishadi. Maktab kompaniyasi o'quvchilarda tashabbuskorlik, kommunikabellik, mustaqillik va mas'uliyatlilik sifatlarini shakllantiradi. O'quvchilar katta muvaffaqiyatlarga erishgan investorlar va tadbirkordan "O'z biznesimni boshlash uchun mendan nima talab etiladi?", "Fond birja vositalaridan qanday foydalanish mumkin?", "Bugungi kunda biznesmenda qanday shaxsiy sifatlar bo'lishi zarur?" kabi ko'plab savollarga javob olishadi.

AQShda maktab kompaniyasini rivojlantirish va o'quvchilarda tadbirkorlik g'oyalarini shakllantirish maqsadida "Young money magazine" jurnali tashkil etilgan. Jurnal muharriri T.Romer tomonidan quyidagi fikrlar bayon etilgan: "Biz ta'lim xizmatlari bozoriga bugungi yoshlar uchun muhim materiallarni yetkazish

²⁰ Gibb A. A note on the meaning of entrepreneurial core qualities and qualities and management. – L., 1998. – P.17.

uchun shart-sharoitlar yaratamiz. Tadbirkorlik ta'limiga yuqori darajadagi qiziqish mavjudligi sababli bugun ko'plab yoshlar pulni boshqarish sohasini o'zlashtirishga erishishmoqda. O'quvchilar ishlab pul topish, investitsiya olish va pulni maqsadli sarflash uchun nima qilish kerakligini bilishga qiziqishadi. Maktab kompaniyasining asosiy maqsadlaridan biri yoshlarda iqtisodiy faoliyatga qiziqishni shakllantirishdir".²¹

Yaponiyada tadbirkorlar va maktab o'rtasidagi munosabatlar qator o'ziga xosliklarga ega. Yapon ishlab chiqarishi va sanoatining katta muvaffaqiyatlarga erishishi, shubhasiz maktab bilan samarali aloqalarning yo'lga qo'yilganligidadir. Yevropa davlatlaridan farqli ravishda Yaponiya o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishda milliy tajribaga asosiy e'tiborni qaratadi. Yaponiya maktablari uchun akademik bilim berish an'anasi xos bo'lib, umumta'lim bilan kasbiy tayyorgarlik uyg'unlikda amalga oshiriladi. Davlat sektori va yirik firmalarda to'plangan tajribalar shundan dalolat beradiki, yapon ishchi-hizmatchilari ish jarayonidagi tayyor bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaraganda o'z salohiyatini yangi bilimlarni o'zlashtirish hisobiga rivojlantirishga ko'proq qiziqish bildirishadi. Shunga qaramasdan, Yaponiyada ko'plab xususiy maktablarda o'quvchilarga biznes asoslari va tadbirkorlik amaliyotini o'rgatish maqsadida yangidan-yangi ta'limiy dasturlar ishlab chiqiladi. Maktab rahbariyati bunday yangiliklar kiritish sabablarini bolalar va ularning ota-onalarining katta qiziqishi bilan izohlashadi.

Buyuk Britaniyada tadbirkorlik ta'limiga maktabdagi tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Hozirgi vaqtda mustaqil kurs sifatida Buyuk Britaniyada iqtisodiyot 21% maktablarda o'qitiladi. Pedagoglarning fikricha, zamonaviy jamiyatning iqtisodiy jihatlarini anglash barcha yoshdagi o'quvchilar uchun muhim ahamiyatga ega. Biroq mazkur sohada tizimli ishlarni amalga oshirish uchun o'quv materiallarining yetishmasligi va o'qituvchilarning

²¹ Урванцева С.Е., Александрова И.С. Обучение основы предпринимательства в зарубежных школах // Экономика в школе. – М., 2017, №3. С. 51-60.

yetarlicha tayyorgarlikka ega emasliklari xalaqit qiladi²².

Buyuk Britaniya maktablaridagi muhim tendensiyalardan biri umumta'limda amaliy sikldagi fanlarni o'zlashtirishga alohida e'tibor qaratilganligidir. Bu holat bugungi kundagi iqtisodiy talablar va o'quvchilarni yuksak texnik taraqqiy etgan jamiyat hayotiga tayyorlash bilan izohlanadi. Mazkur tendensiya britaniya maktablari o'quv rejalarida yaqqol o'z aksini topgan. Jumladan, maktab o'quv rejasida turli amaliy kurslar mavjud: "Injenerlik ishi nazariyasi va amaliyoti", "Transport motorlarini o'rganish", "Fotografiya", "Kinos'yomka", "Kommersiya", "Biznes", "Stenografiya" va boshqalar.

Maktab ta'limida asosiy e'tibor o'quvchilarning kichik ishlab chiqarish korxonalariga jalb etishga qaratiladi. Mazkur kichik ishlab chiqarish korxonalari o'quvchilarni biznes olamiga olib kirish orqali ularda amaliy ko'nikma va shaxsiy sifatlarni rivojlantirish, tashabbuskorlik va ijodkorlik qobiliyatlarini ochilishini ta'minlaydi, ularda mustaqil o'z-o'zini ish bilan ta'minlash imkoniyati mavjudligiga ishonchni qaror toptiradi va kasbga yo'naltirishga yordam beradi.

Amaliyotda tadbirkorlik ta'limi ikkita maqsadni ko'zda tutadi:

1. Tadbirkorda maqsadga yo'naltirilgan shaxsiy sifatlarni (tashabbuskorlik, mustaqillik, ijodkorlik, kommunikabellik, tavakkalchilik va boshqalar) shakllantirish.

2. Kichik korxonalar loyihasini tashkil etish hamda amalga oshirish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish²³.

Buyuk Britaniya maktablarida tadbirkorlik ta'limini joriy etishning to'rt modeli ishlab chiqilgan: faoliyatga yo'naltirilgan; o'quv fani sifatida, modulli yondashuv, umumta'limiy yondashuv²⁴.

O'quv jarayoni doirasida umumta'lim maktablarida o'qishning uchinchi va to'rtinchi bosqichida o'quvchilarni o'qitish uchun kichik ishlab chiqarish

²² Кремнева Т.Л. Подготовка социальных работников в Великобритании: автореф. дис. д-ра пед. наук. – М., 1999. – С. 31.

²³ Youth Entrepreneurship: Theory, Practice and Field Development. 2006. Sep. P. 18.

²⁴ Davies H. A review of enterprise and the economy in education. HM Treasure, 2002. URL: www.dfes.gov.uk.

korxonalarni tashkil etishdan majburiy foydalanish taklif etiladi. Britaniyalik pedagoglarning fikricha, tadbirkorlik ta'limini amalga oshirish uchun quyidagi tarzda ta'limga nisbatan yondashuvni o'zgartirish zarur:

- 1) o'qituvchi – bu ekspert emas, o'rtoq va yordamchi;
- 2) o'qituvchilar mehnat faoliyatining faol ishtirokchisi;
- 3) o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar uchun musobaqa emas, hamkorlik ruhi xos bo'lishi lozim;
- 4) faoliyat individual emas, kichik guruhlarda amalga oshiriladi;
- 5) mazmunga (nimani bilish) emas, jarayonga (qanday o'rganish) e'tibor qaratilishi kerak;
- 6) darslar moslashuvchan tarzda tashkil etilishi, mavzular muhokama orqali tanlanishi zarur;
- 7) olamga nisbatan turfa xillikni tarkib toptirish zarur ("bu to'g'ri, bu esa noto'g'ri" qoidasi qabul qilinmaydi);
- 8) nazariyani amaliyotga tatbiq etish uchun o'quvchilarning erkin harakatlanishiga imkon berish lozim.

"Tadbirkorlik ta'limi" tushunchasi birinchi marta britaniyalik pedagog Jonson tomonidan o'quvchilarda tadbirkorlik faoliyati uchun zarur kasbiy sifatlarni rivojlantirish va ishlab chiqarishni tashkil etish sohasida bilim va ko'nikmalarni tarkib toptirish nuqtai nazaridan qo'llanilgan²⁵.

Tadbirkorlik ta'limi konsorsiumining hisoblashicha, tadbirkorlik ta'limi tadbirkor sifatida shakllantirish uchun individda mas'uliyatni, tashabbuskorlikni tarkib toptirish maqsadida kishilarni, ayniqsa, yoshlarni maxsus tayyorlashni ko'zda tutadi. U o'zida individning tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam ko'rsatish uchun ta'limiy muhitni strukturalashtirish va qo'llab-quvvatlash vositalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Biznesni an'anaviy o'qitishdan farqli ravishda menejment texnikasiga emas, innovatsiya, ijodkorlik va riskni baholashga katta e'tibor qaratadi.

²⁵ Климова Е. Профессиональная деятельность предпринимателя. СПб.: Скифия, 2014. – С. 33.

Buyuk Britaniya maktablari faoliyati tahlili shundan guvohlik beradiki, o'quvchilarni tadbirkorlikka tayyorlash o'quv-tarbiya jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi, davlat miqyosida yoshlarni mustaqil hayot va faoliyatga tayyorlash tizimining majburiy elementini o'zida aks ettiradi.

Barcha rivojlangan davlatlar singari Fransiyada ham maktabga bo'lajak fuqaro, milliy iqtisodiy kadrlarni shakllantirib beradigan ijtimoiy institut sifatidagi qarash keng tarqalgan. Fransiyada maktab ta'limini modernizatsiyalash yo'lini belgilab olish jahon bozoridagi raqobatning kuchayishi sharoitida ilmiy-texnik inqilob va globallashuvning ta'sirida yuzaga kelgan. Ta'lim sifatini oshirish, shu jumladan o'quvchilarni tadbirkorlikka tayyorlash tizimini yaxshilash davlat organlari qarorlari, olimlarning tadqiqotlari, jamoatchilik chiqishlarida alohida ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, bugungi kun ta'limi nafaqat iqtisodiyot, texnika, ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishining zamonaviy bosqichini o'zida aks ettirishi, XXI asrdagi ilmiy-texnik rivojlanishning istiqbolli darajasiga mos bo'lishi zarur. Sifatli iqtisodiy ta'limni amalga oshirish zarurati 1985 yilda Fransiyada qabul qilingan "Kelajak ta'limi" deb nomlangan hukumat dasturida alohida qayd etib o'tilgan.

Fransiyada kichik maktab yoshidayoq bolalarni iqtisodiy bilimlar bilan maqsadga yo'naltirilgan tarzda tanishtirib boriladi, zamonaviy ishlab chiqarish va asosiy kasblar haqida umumiy tushunchalar berib boriladi. Mehnat stajirovkasi jarayoni, dasturi va o'tkazish joyi ota-onalar bilan kelishiladi, fransuz o'quvchilari oilaviy daromadga naf keltiradigan pul mukofoti olishadi. O'quvchilarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashda sifatli mutaxassislar tayyorlashdan bevosita manfaatdor kompaniya va korxonalar faol ishtirok etishadi. Litseyning ikkinchi sinfidan (umumiy o'rta ta'limning 10-sinfi) o'quvchilar ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishdagi guruhlarda o'qish istagini bildirishi mumkin. XX asrning 80-yillarida Fransiyada va Yevropaning bir qancha davlatlarida umumiy o'rta ta'lim, kasbiy-mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish jarayonida tadbirkorlik faoliyatiga jadal tayyorlash "Kar'eraga tayyorlash maqsadida ta'lim" konsepsiyasi ishlab chiqilgan. Mazkur dastur maktab va

ishlab chiqarish o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan²⁶.

Yevropaning boshqa davlatlarida ham o'quvchilarga iqtisodiy bilim asoslari va tadbirkorlikni o'qitish dasturlari keng joriy etilgan. 2000 yildan Yevropa Ittifoqi rahbarligida har yili 30 ta davlat, shu jumladan, Rossiya, Latviya, Estoniya va Ukraina kabi mamlakatlar o'quv-ishlab chiqarish birlashmalari o'quvchilarining umumevropa yarmarkasi o'tkaziladi²⁷. Yarmarka davomida o'quvchilar o'z tovarlarini sotishadi, o'zlarining ta'lim tizimi yutuqlarini namoyish etishadi. O'quv-ishlab chiqarish yarmarkalari Yevropaning turli davlatlarida yil davomida bir necha marotaba tashkil etiladi. Bu esa, "Yevropa yosh tadbirkorlari Assosatsiyasi" davlatlaro harakatining keng tarqalganidan dalolat beradi.

2.2.-§. Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy bilimlarini shakllantirishning shakl, usul va metodlari

Mehnat fanining asosini chuqur va amaliy o'zlashtirishda, bolalarni mehnatga bo'lgan munosabatini ijodiy ish faoliyatida mustaqil shakllantirishda, fikr yuritishga o'rgatuvchi ilmiy vositalardan biridir. Ko'p asrlik tajriba shuni ko'rsatadiki, insonlarning mehnati tufayli cheksiz boyliklar va imkoniyatlarning yechiladi. Mehnat fani iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili hisoblanib, o'quvchilarning chuqur iqtisodiy bilimini mustahkamlaydi. Hali-hanuz iqtisodiy mehnat tarbiyasida ilg'or umumbashariy va milliy g'urur, ularning tarbiyaviy xarakteri o'z ifodasini topgani yo'q. Shuning uchun mehnat darslarida o'quvchilarning iqtisodiy faolligini oshirish va tadbirkorlik mehnat faoliyati ko'nikmalarini shakllantirish va kuchaytirish lozim.

Iqtisodiy tarbiyaning qator vazifalari mehnat darslarida amalga oshiriladi. Bu vazifalardan biri tadbirkorlik bo'lib, bu mahsulot ishlab chiqarish uni sota


²⁶ Грасс Т.П. Экономическая социализация подрастающих поколений в развитых странах / Lambert Academic Publishing. Германия, 2011. – С. 116.

²⁷ Петрищев В.И., Грасс Т.П. Предпринимательство как фактор экономической социализации школьной молодежи (на примере России и зарубежных стран). Красноярск, 2011.

bilish, tushgan mablag'ni joy-joyiga sarflay olishdir. Bu tadbirkorlik talablarini mehnat darslari jarayonida darslar nechog'lik qiziqarli va foydali tashkil etilsa, o'quvchilar shunchalik iqtisodiy bilimga va malakaga ega bo'ladilar. **Avvalo bu darslarning mazmunini to'g'ri belgilab olish zarur.**

- * mehnat ta'limi va tarbiyasining ijtimoiy va iqtisodiy yo'nalganligi;
- * mehnat darslarini bozor iqtisodi talablari asosida pedagogik texnologiyalardan va malakalardan unumli foydalanish;
- * o'quvchilarni qiziqishlarini hisobga olib amaliy to'garaklarga jalb qilish;
- * o'quvchilarni mehnat darslarida iqtisodiy bilim berishda yoshi, shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish;
- * o'quvchilarni mehnat natijalarini rag'barlantirish va kamchiliklarni do'stona hal qilish;
- * mehnat darslari bolalar uchun iqtisodiy bilimlar bilan tevarak- atrofdagi hayotni o'ziga xos tarzda bog'lovchi omil bo'lishi lozim.

O'quvchilarda texnologiya darslari (mehnat ta'limi) jarayonida tadbirkorlik tushunchalarining dastlabki bosqichlarini amalga oshirishda quyidagi vazifalarni bajarish ko'zda tutiladi (2.2. 1-rasm):



2.2. 1-rasm. texnologiya darslari jarayonida tadbirkorlik tushunchalarining dastlabki bosqichlardagi vazifalari

O'quvchilarda tadbirkorlik tushunchalarini shakllantirishda maktab, mahalla, oila va jamoatchilikni birgalikdagi harakati o'z-o'ziga xizmat qilishni tashkil etish, mahsulot sifati hamda turli ish turlari jarayonida mehnat natijalarining unumdorligi keskin o'sishda o'z ta'sirini ko'rsatadi. Chunki tadbirlarda erishilgan yutuqlar bo'yicha o'quvchilarning bajargan buyumlari maktab muzeylari yoki sinf burchagida namuna sifatida saqlash, ota-onalarga sovg'a sifatida taqdim etish o'quvchilarda amaliy mehnatda ish sifatini yanada oshirish, ijobiy natijalarga erishishda samarali ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarning bajargan ishlaridan maktab sharoitidan kelib chiqib har xil ko'rgazmalar va o'quvchilarning o'zlari uchun maktab bozori tashkil qilinsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bunda o'quvchilar o'zlari bajargan ishlar natijalarini, diqqatga, e'tiborga sazovor bo'lganligini, o'zini mablag' bilan qisman ta'minlanganligini, o'zini boshqara olishini ko'rib, o'z mehnatiga va o'z g'alalar mehnatiga hurmat bilan qaraydi. O'quvchi ongida mehnatga muhabbat o'z samarasini topadi. Natijada davlatimizning iqtisodini yuqori darajaga ko'tara oladigan, o'zining kasbini, hunarini hurmat qiladigan, jamiyatimizning rivojlanishida o'zini hissasini qo'sha oladigan barkamol avlodni tarbiyalashimizda yordam beradi.

Iqtisodiy ta'lim yaxlit ta'lim jarayonining bir qismidir. Uning asosiy vazifasi bolaning zamonaviy jamiyat madaniyatini tushunishiga yordam berishdir. Iqtisodiy madaniyat iqtisodiy tafakkurning rivojlanishi, iqtisodiy tushuncha va kategoriyalarni ravon bilishi bilan tavsiflanadi. Bolaning iqtisod olamiga sho'ng'ishi ikki yondashuvga asoslanadi: a) insoniyatga ma'lum bo'lgan tajribani takrorlash; b) simulyatsiya qilingan va real hayotiy vaziyatlarda haqiqatlarni ochish.

Boshlang'ich maktab yoshida iqtisodiy madaniyatning asoslari yaratiladi. Bu jarayonning samaradorligi, menimcha, bolalarning iqtisodiy bilim darajasidan dalolat beradi. Iqtisodiy ta'lim quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: iqtisodiy bilimlar, iqtisodiy ko'nikmalar, shaxsning axloqiy fazilatlar.

Kichik maktab o'quvchilarining iqtisodiy bilimlarni o'zlashtirishi individual hodisalarni kuzatishdan, o'quvchi ko'rgan, ta'kidlaydigan, taqqoslaydigan faktlar bilan tanishishdan boshlanadi.

Iqtisodiy bilimlar ilmiy fanlarning tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Matematika - "massa o'lchovlari", "qiymat o'lchovlari". Atrofdagi olam – "Tabiat – uyimiz", "Shahar va qishloq", "Qurilish va transport", "Barcha kasblar muhim". Tarixi - "Pul", "Soliqlar". Texnologiya: jamoalarda ishlash, ekskursiyalar, materiallarni o'rganish. Boshlang'ich sinflarning sinfdan tashqari mashg'ulotlari darsning tabiiy davomi hisoblanadi.

Zamonaviy odamning iqtisodiy bilimsiz yashashi qiyin. Iqtisodiyot insonning tug'ilishidan to oxirigacha butun hayotini qamrab oladi. Iqtisodiyot bo'yicha ko'plab kitoblar yozilgan, ularning har biri odamlar ega bo'lgan iqtisodiy bilimlarning faqat bir qismi haqida tasavvur beradi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, moliyaviy masalalarda yo'naltirilganlik bolalik davrida olingan bilim va tajribasiz mumkin emas. Nafaqat so'zlar, balki sharoitlar ham pul topish va qadrlash haqida g'oyalarni singdirishi kerak. Oila byudjeti, oilaning moddiy ahvoli bola uchun sir bo'lmasligi kerak. Bolalar oila byudjetini muhokama qilishda ishtirok etadilar. Birinchi sinfda men "Keling, qancha ish qilish kerakligini hisoblaymiz" o'yinini o'ynaganman. Ushbu o'yinning maqsadi - bolalarning uy yumushlari doirasini va ularning uy ishlariga jalb qilish darajasini aniqlash. Bu o'yin bolalarda uy ishlariga qiziqishni rivojlantiradi. Bolalar qanday uy yumushlarini bajarishlarini aytib berishadi (binoni tozalash, idishlarni yuvish, oziq-ovqat sotib olish, uy hayvonlari, o'simliklarni parvarish qilish). Bolalarning doimiy majburiyatlari soni ortib bormoqda.

"Qancha turadi" seminari uchun men tayyorgarlik ishlarini olib boraman. Oldindan men bolalardan ota-onalari bilan oila tomonidan iste'mol qilinadigan oziq-ovqatning narxi, miqdorini aniqlab berishlarini so'rayman. Keyin maktab oshxonasini aylanib chiqaman. Bolalar maktab nonushtalari va tushliklarida qanday ovqatlar ishlatilishini bilib oladilar. Tayyorgarlik ishlari natijasida bolalar

ota-onalari bilan birgalikda stolni to'ldiradilar va nonushta narxini hisoblab chiqadilar.

Keyingi texnologiya darsida esa "Nonushta" jadvalidagi ma'lumotlardan foydalanib, muammolarni yechamiz. Bolalarga "xarajat", "mahsulot", "narx" so'zlarining ma'nosi tushuntiriladi. Eksperimental ish shuni ko'rsatadiki, bolalarning iqtisodiy hodisalarga qiziqishini faollashtirishga qidiruv xarakteridagi vazifalar yordam beradi.

Shunday qilib, "Ehtiyoj va imkoniyatlar" darsida insonning xohish va ehtiyojlari kabi ehtiyojlar haqida g'oyalar shakllanadi. Butun sinf mikroguruhlariga bo'linadi, topshiriqlarni oladi, ishlarni bajaradi va tanlov qiladi. Jadvalni to'ldirishda bolalar inson ehtiyojlarini qondirishga yordam beradigan odamlarning kasblarini o'rganadilar. Mikroguruhlarning har biriga rang berish uchun karta beriladi. Bolalar birgalikda ishlayotganda maslahatlashadilar va keyin o'z tanlovlarini tushuntiradilar.

Bolaning rivojlanishi faoliyatda amalga oshiriladi. Iqtisodiy ta'lim bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishda men faoliyatning optimal kombinatsiyasiga erishishga intildim. Har bir darsda bolalar kognitiv, o'yin, mehnat faoliyatiga kiritiladi. Shu bilan birga, shuni ta'kidlash kerakki, individual kognitiv jarayonlar, bolaning qobiliyatlarining namoyon bo'lishi va rivojlanishi boshqa odamlar bilan muloqotda va birgalikdagi faoliyatda sodir bo'ladi.

O'quvchilarni iqtisodiy atamalar bilan tanishtirish kerak. Ushbu yo'nalishdagi tizimli ishlar bolalar tomonidan kontseptual apparatni o'zlashtirishga, iqtisodiy dunyoqarashni rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchilarning iqtisodiy dunyoqarashining rivojlanishi nafaqat so'z boyligining kengayishi va yangi iqtisodiy tushunchalarni o'zlashtirishida, balki sifat o'zgarishlarida ham namoyon bo'ladi.

Ishdan ko'rinib turibdiki, bolalarning iqtisodiy hodisalarga qiziqishini faollashtirishga qidiruv xarakteridagi vazifalar, shuningdek, bolalar va kattalarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etishning turli shakllari yordam beradi. Talabalarni mashg'ulotlarga jalb qilish ularning real hayot bilan

tanishishini ta'minlaydi, o'z tajribasi natijasida bilimlardan foydalanish qobiliyatini rivojlantiradi.

Ish jarayonida kichik yoshdagi maktab o'quvchilariga iqtisodiy ta'lim berishning samaradorligi uchun shart-sharoitlar aniqlandi. Bu bolalarni turli tadbirlarga kiritish; bolaning shaxsiy tajribasiga tayangan holda, ularning yoshiga mos keladigan bolalar faoliyatini tashkil etishning mazmuni, shakllari va usullarini aniqlash.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga iqtisodiy bilim berish katta tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ahamiyatga ega. Bu dunyoqarashni shakllantirishga hissa qo'shadi, kuzatuvchanlik, mantiqiy fikrlash va nutqni rivojlantiradi, mehnatga va uning natijalariga hurmat ko'rsatadi.

2.3.-§. Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirishning modeli

Bugungi kunga kelib biz ta'lim-tarbiyaga yangicha tizimli yondashuv asosida e'tibor qaratmoqdamiz. Ushbu yondashuv asosida boshlang'ich sinflarda texnologiya darslarida iqtisodiy bilim tushunchalarini shakllantirishda o'quvchilar ongiga iqtisodiy tafakkurni singdirish uchun barcha sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Umumta'lim muassasalarida o'quvchilarda boshlang'ich sinflardan boshlab bosqichma-bosqich texnologiya darslari orqali iqtisodiy bilim tushunchalarini singdirilib borishni, ularda ilk tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishni oldimizda turgan eng katta vazifalarimizdan biri hisoblanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-80-son 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"²⁸gi Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmon keng jamoatchilik muhokamasi natijasida "Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo'nalishning to'rtinchisi – "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish" deb

²⁸ O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida.

nomlangan bo'lib, bu bo'g'in tarkibidagi 70-maqсад “Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish” o'rin olgan. Ushbu maqsadda bir necha quyidagi vazifalar ham belgilangan:

- Yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish.
- Yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta'lim olishini ta'minlash.
- Iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish.
- Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish.
- Yosh oilalarni ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish.

Belgilangan vazifalar tarkibida yoshlarni ilk tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish uchun shart-sharoitlar yaratish hamda ularda ushbu jarayonni amalga oshirish uchun avvalo boshlang'ich sinflardan boshlab texnologiya darslari orqali iqtisodiy bilim tushunchalarini shakllantirishda ma'naviy tarbiya indikatorlarini ishlab chiqish aynan biz tadqiq qilayotgan mavzu yuzasidan bevosita bog'langan. Ushbu jihatlarni nazarda tutgan holda, biz **boshlang'ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirishning modeli** yaratdik.

Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirishning modeli maqsadi: boshlang'ich sinf o'quvchilarida **iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirish**.

Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirish modeli vazifasi quyidagilar:

- o'quvchilarga iqtisodiy bilimning o'ziga xos xususiyatlari haqida tushunchalar berish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiy bilim tushunchalarini singdirish;
- iqtisodiy bilim tushunchalarini berish orqali ularda ilk tadbirkorlik motivlarini shakllantirish;

- iqtisodiy bilim tushunchalarini mustaqil egallash ko'nikmalarini o'zlashtirishga ko'maklashish;

Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirishni amalga oshirish bo'yicha olib borilgan tahlillar, bu jarayonning mutlaqo yangi modelini yaratishga asos bo'ldi. Jamiyatning bir qismi bo'lgan ta'lim tizimi va jamiyatning a'zosi bo'lgan shaxslar ta'limning mazmunini anglash, uning mukammalligini va undan qanoatlanishni his etish vositasi ham bo'lishi kerak.

Modellashtirish, tizimli tahlil va xulosa qilish bilan birga, ilmiy tadqiqotning yetakchi metodlaridan biri hisoblanadi. Faraz qilinayotgan model, modellashtirish vositasiga oid turlardan biri hisoblanadi. Modellashtirish – obyektlarda ijtimoiy reallikning muayyan qismlarini tadqiq etish uslubi hamda predmetlar va hodisalarning real mavjud bo'lgan hamda quriladigan modellarini o'rganish va ishlab chiqishdir.

Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirish modeli umumta'lim muassasalarida boshlang'ich sinf o'quvchilarning ilk tadbirkorlik ko'nikmalarini egallagan shaxs qiyofasini namoyon etishga psixologik-pedagogik tayyorligini ta'minlovchi, o'zaro bog'liq va o'zaro aloqaga ega: maqsad va vazifani belgilash, mazmun, texnologik va nazorat-tahlil komponentlardan iborat majmui tushuniladi.

Maqsad va vazifani belgilash komponenti quyidagi kompleks vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutadi, unda o'quvchilar:

- iqtisodiy bilim tushunchalarining o'ziga xos xususiyatlari haqida tasavvurlarini shakllantirish;
- o'quvchilarida iqtisodiy tarbiya mezonlarini singdirishda tejamkorlik kompetensiyalarining o'rnini aniqlash;
- zamonaviy talablar doirasida iqtisodiy bilim tushunchalarini o'quvchilarga yetkazish;
- iqtisodiy bilim tushunchalari mustaqil egallash ko'nikmalarini o'zlashtirishga ko'maklashish;

Modelning mazmun komponenti zaruriy bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni o'z ichiga oladi. Mazmun komponenti o'z strukturasiga ko'ra tamoyillar va mazmunlardan iborat. **Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirish**, rivojlantirish insonparvarlik, uzviylikka asoslanganlik, tizimlilik, izchillik va faoliyatlilik tamoyillariga tayanadi.

Insonparvarlik tamoyili, **iqtisodiy bilim tushunchasini** shakllantirishda o'quvchilarning hayot faoliyatida muvaffaqiyatli bo'lishi uchun g'amxo'rlik qilish ekanligini nazarda tutadi.

Tizimlilik tamoyili **boshlang'ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy bilim tushunchasini** shakllantirishning aloqasini, ularning o'zaro ta'sirlashuvini nazarda tutadi hamda ilk tadbirkorlik motivlarini shakllanish jarayonining bir qismi sifatida qabul qiladi.

Izchillik tamoyili **boshlang'ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy bilim tushunchasini** shakllantirish jarayonini tavsiflaydi, uning har bir bosqichi yangilikni anglash uchun imkoniyatlar ochib beradi. **Iqtisodiy bilim tushunchasini** shakllantirishning ilk ko'rinishlari oila dargohidan boshlanib ta'lim tashkilotlarida bosqichma-bosqich bevosita uzluksiz davom etuvchi jarayon hisoblanadi.

Faoliyatlilik tamoyili – **boshlang'ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy bilim tushunchasini** yo'naltirish jarayoni rivojlantirish xususiyatini nazarda tutadi. Faoliyatdan tashqarida **iqtisodiy bilim tushunchasini**ning imkoniyatlari, talablari va mohiyatini to'liq tushunish, mustaqil loyihalash bilan birga uni amalga oshirish alohida ahamiyatga ega bo'ladi.

Modelning texnologik komponenti **boshlang'ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy bilim tushunchasini** shakllantirishda ularga ta'sir ko'rsatuvchi shakllar, metodlar, vosita va pedagogik shart-sharoitlarni tanlab olishni, shuningdek iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirish shartlarini belgilaydi.

Maqbul tizim sifatida quyidagi metodlar tanlab olindi:

1) izohli-ko'rgazmali (ma'ruzalar) – **iqtisodiy bilim tushunchasini** haqidagi axborotning asosiy hajmini uzatish uchun;

2) o'quvchilarga mustaqil ravishda, lekin o'qituvchining nazorati ostida o'zini tashxislash metodikalari hamda ular bilan tanishish uchun birgalikdagi faoliyat (muhojama qilish, bahs-munozarali vaziyatlarga baho berish) metodlari;

3) **iqtisodiy bilim tushunchasini** shakllantirish vazifalarini modellashtiruvchi va faoliyat davomida anglashi zarur bo'lgan kompetensiyalarning keng ko'lamini o'rganishga imkon beruvchi o'qitish (o'quv loyihalari, kasbiy o'yinlar va treninglar) metodlari;

4) reproduktiv metod (test sinovlari, topshiriqlarni himoya qilish) – iqtisodiy bilimlarni o'zlashtirish, ko'nikmalar va kompetensiyalarni shakllantirish jarayonini nazorat qiladi.

Nazorat-tahlil komponenti **boshlang'ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy bilim tushunchasini** shakllantirish jarayonining natijasini tavsiflaydi. **Iqtisodiy bilim tushunchasining** shakllanganligi, **iqtisodiy bilimlarni** egallashga tayyorligida aniqlanadi. Pedagogik tayyorlikning tuzilmasi o'zida, miqdoriy ifodaga ega ko'rsatgichlarni, shuningdek o'quvchilarning **iqtisodiy bilimlarni** egallashini anglatuvchi kompleks tashxis qo'yishni nazarda tutuvchi turli xil darajalarni birlashtiradi.

Bilim ko'rsatgichi **boshlang'ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy bilim tushunchasini** shakllantirish uchun zarur bo'lgan, shaxsiy faoliyatining o'ziga xos xususiyati haqidagi, faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish shaxsiy sifatleri haqidagi, o'zining bu sifatlarini tashxis qilish imkoniyatlari haqidagi hamda shakllantirish imkoniyatlari haqidagi **iqtisodiy bilimlar** to'plamlarni ifodalaydi.

Ko'nikma ko'rsatgichi **boshlang'ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy bilim tushunchasini** shakllantirish tahlil qilish, o'zining shaxsiy sifatlariga tashxis qo'yish va muhim sifatlar bilan o'zining shaxsiy sifatlarini taqqoslash imkoniyatlarini ifodalaydi.

Malaka ko'rsatgichi **boshlang'ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy**

bilim tushunchasini shakllantirishda o'quvchining xohish va imkoniyatlarini jamiyatning ehtiyojlari bilan taqqoslab **iqtisodiy bilimni** shakllantirish masalasini ijobiy hal qilish o'quvchining ko'nikmasini namoyon etadi, ongli, ijtimoiy-foydali tanlovni amalga oshiradi.

Past daraja. Agar o'quvchilar **boshlang'ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy bilim tushunchasini** haqida tasavvurga ega bo'lsa va **iqtisodiy bilimni** egallash uchun orzu-havasdek bo'lib hisoblansa, u holda past darajaga tashxis qo'yiladi. **Iqtisodiy bilim tushunchasini** shakllantirish past yoki yo'q bo'lsa, o'quvchilarda **iqtisodiy bilimni** shakllantirish darajasi past deb baholanadi.

O'rtacha daraja. Agar o'quvchilar **iqtisodiy bilim tushunchasi** haqida tasavvurga ega bo'lsa, **iqtisodiy bilimlarning** muhim sifatlari haqida bilsa lekin o'zining shaxsiy sifatlarini (yoki shaxsiy sifatlarini umumiy ma'noda bilsa, tashxislay olmasa) bilmasa, qiziqishlari barqaror bo'lmasa, u holda o'rtacha darajaga tashxis qo'yiladi. **Iqtisodiy bilim tushunchasini** shakllantirishga qiziqish mavjud bo'lib, o'zining shaxsiy sifatlarini taqqoslay olmasa, o'quvchilarda **iqtisodiy bilim tushunchasini** shakllantirish darajasi o'rtacha deb baholanadi.

Yuqori daraja. Agar o'quvchilar **boshlang'ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy bilim tushunchasini** haqida tasavvurga ega bo'lsa, diagnostik metodikalar haqida tushunchalarga ega bo'lsa, **iqtisodiy bilim tushunchasining** muhim sifatlarini o'zining shaxsiy sifatlari bilan taqqoslay olsa, shuningdek **iqtisodiy bilim tushunchasini** shakllantirishda o'zini jamiyatning ishbilarmon insonlar guruhiga kiritisa, u holda yuqori darajaga tashxis qo'yiladi.

BOSHLANG'ICH SINIF TEXNOLOGIYA DARSLARIDA IQTISODIY BILIM TUSHUNCHASINI SHAKLLANTIRISHNING MODELI

MAQSADLI BLOK

Maqsad:

boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirish

Vazifalar:

O'quvchilarga iqtisodiy bilimning o'ziga xos xususiyatlari haqida tushunchalar berish;

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiy bilim tushunchalarini singdirish;

Iqtisodiy bilim tushunchalarini berish orqali ularda ilk tadbirkorlik motivlarini shakllantirish;

Iqtisodiy bilim tushunchalarini mustaqil egallash ko'nikmalarini o'zlashtirishga ko'maklashish;

MAZMUNLI BLOKI

boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirish

Mazmun komponenti:

- Bilim;
- Ko'nikma;
- Malaka;
- Kompetensiya;

Tamoyillar:

- insonparvarlik;
- tizimlilik;
- izchillik;
- faoliyatlilik;

TEXNOLOGIK BLOK

Iqtisodiy bilim tushunchalarini shakllantirish jarayonini tashkil etish

METODLAR:

SHAKLLAR:

VOSITALAR:
didaktik materiallar,
ko'rgazmali
vositalar, maketlar,
audiovisual vositalar

**PEDAGOGIK
SHART-
SHAROITLAR:**
iqtisodiy bilimni
shakllantiruvchi
metodlar

NATIJAVIY BAHOLASH BLOKI

Mezonlar

Kognitiv

Motivatsion

Amaliy faoliyat

Darajalar

Yuqori

O'rta

Quyi

II bob bo'yicha xulosa

Xorijiy mamlakatlar, jumladan, AQSh, Angliya, Fransiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Rossiya kabi davlatlar pedagoglari va tadbirkorlari ham o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishda oila va maktab tarbiyasining potensial imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayotganligini alohida e'tirof etishadi. Ko'pchilik tadbirkorlar ishchi-xodimlarda zamonaviy sharoitda muhim ahamiyat kasb etuvchi analitik va tizimli fikrlash, tashabbuskorlik va kommunikabellik, qarorlar qabul qilish va mas'uliyatlilik sifatlarining mavjud bo'lishini talab etishgani bois, rivojlangan davlatlarda o'quvchilarga iqtisodiy bilim asoslari va tadbirkorlikni o'qitish dasturlari keng joriy etilganligini e'tirof etish zarur. Mazkur tajribalarni hisobga olgan holda, respublikamizda oila va maktab hamkorligi asosida o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

III BOB. BOSHLANG'ICH SINIF TEXNOLOGIYA DARSLARIDA IQTISODIY BILIM TUSHUNCHASINI SHAKLLANTIRISHGA DOIR TAJIRIBA-SINOV ISHLARI

3.1-§. Tajriba-sinov ishlari dasturi va mazmuni

Pedagogik hodisalarning murakkab tabiati ilmiy uslublarni belgilab berib, ular yordamida bu hodisalarni tadqiq etish mumkin. “Falsafa lug‘ati”da tajriba (eksperiment) bu biron-bir hodisalarni ularga tadqiqotning maqsadlariga mos bo‘lgan yangi sharoitlarni yaratish yordamida ularga faol ta’sir ko‘rsatish yo‘li bilan tadqiq etish” deb ta’rif berilgan. Tajriba, bir tomondan bilish manbai bo‘lsa, ikkinchi tomondan – gipoteza va nazariyalarning haqiqiylikni aniqlash mezonidir²⁹.

Umuman bir-biriga zid bo‘lmagan bir qator boshqa ta’riflar ham mavjud. Masalan, A.YA.Naynning fikricha, tajriba deb, tadqiqotning mavhumdan aniqqa tomon yo‘lini (gipoteza-dalillar) hisoblash mumkin, bu esa o‘quv-tarbiyaviy jarayonni takomillashtirish uchun hosil bo‘lgan o‘lchanadigan kattaliklar bilan muvoffaqiyatliroq amallar bajarishgaimkon beradi³⁰.

M.N.Skatkin, o‘z navbatida, tajribani “obyekt va buyumning faoliyat yuritishi va rivojlanish qonuniyatlari, xossalari, aloqalarini aniqlash uchun maxsus yaratilgan sharoitlarda tadqiq etilayotgan obyekt va buyumni o‘rganish bilan bog‘liq bilimlarga oid amallar tizimi” sifatida ta’riflaydi³¹.

Shuni ham qo‘shimcha qilish lozimki, “pedagogik eksperiment bitta yoki bir nechta o‘zgaruvchilar bilan rejali manipulyasiya qilish va o‘rganilayotgan obyekt yoki tizimning xulqidagi tegishli o‘zgarishlarni qayd etish hisobiga pedagogik omillar, sharoitlar, jarayonlar o‘rtasidagi sababli-oqibatli

²⁹ Filosofskiy slovar / pod red. I. T. Frolova, 6-e izd. - M.:Politizdat, 1991. – 559 s.

³⁰ Nain, A. YA. Organizatsiya opytно-eksperimentalnoy raboty i ponyatiynogo apparata issledovaniya: uchebno-metod. posobie / A. YA. Nain, 3.M. Umetbaev. - CHelyabinsk : UralGUFK; Magnitogorsk: MaGU, 2008. – 64 s.

³¹ Skatkin, M. N. Metodologiya i metodika pedagogicheskix issledovaniy /M. N.Skatkin. - M. : Pedagogika, 1986. – 152 s. – S.54.

munosabatlar to‘g‘risida yangi bilimlar omilga imkon beradi”³²

Tajriba-sinov dasturi quyidagi hujjatlar talabi asosida yaratilgan:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni;
- “Uzluksiz ma’naviy tarbiya” Konsepsiyasi;

Dasturning yangiligi (innovatsiyaligi): ushbu dastur “Boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirish”ni pedagogik rivojlantirish ishlarini o‘zida mujassamlashtirilgan bo‘lib, ushbu dastur asosida o‘qituvchi-tarbiyachilar uchun kichik metodik tavsiyalar (qo‘llanma) ishlab chiqishi rejalashtirilgan. Ushbu dasturning to‘laqonli ishtirokchisi sifatida o‘quvchi-yoshlarning sinf rahbarlari, ota-onasi ishtirok etadilar. Kompleksli pedagogik kuzatish doirasida ushbu dastur o‘zaro ishonchga asoslangan guruhliy shaklda va individual ko‘rinishda (pedagogik, o‘quvchilar vaqtini unumli tashkil etishda ota-onalarning ishtirokini aniqlash) olib borilib, bu yerda o‘quvchilarning ma’naviy tarbiya mezonlarini aniqlab borishga yordam beruvchi ijtimoiy malaka, me’yorlar va xulq-atvor qoidalari shakllanadi. Shuningdek, ushbu dastur o‘quvchilarning ma’naviy tarbiya mezonlarini shakllantirishga yordam beradi.

Dasturning maqsadi:

- O‘quvchilarning o‘quvchilarda iqtisodiy tarbiyani shakllantirishda ajdodlar ilmiy merosidan foydalanishda zamonaviy yondashuv mazmunini takomillashtirishning metod va vositalarini ishlab chiqish va uning samaradorligini asoslash.

Dasturning vazifalari:

- Tadqiqot mavzusiga oid ilmiy-pedagogik, falsafiy, psixologik manbalarni tahlil qilish orqali muammoning dolzarb ahamiyatga ega ekanligini asoslash.

³² Polonskiy V.M. Otsenka kachestva nauchno-pedagogicheskix issledovaniy / V.M.Polonskiy. -M.: Pedagogika, 1986. – 152 s.

- Umumta'lim maktab rahbariyatlariga o'quvchi-yoshlarning ota-onalari bilan ishlash borasidagi faoliyatini amalga oshirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.
- Ota-onalarning farzand tarbiyasi va kamoloti uchun mas'uliyati va javobgarligi hamda iqtisodiy tarbiyasi oshirishning imkoniyatlarini aniqlash.
- Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirish modelini yaratish, mavjud holatning pedagogik nuqtai nazardan o'rganish, tahlil qilish.
- Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirishning mazmuni, metodlari va vositalarini asoslash.

Dasturning tamoyillari:

- Gumanizm va optimism – tadqiqotimiz davomida nafaqat o'quvchilar ma'naviy tarbiya indikatorlarini shakllantirishni o'rganish va tadqiq qilish, ularni rivojlantirishda zamonaviy tamoyillarga e'tibor qaratish, balki o'quvchilarning o'ziga va hayot tarziga ta'sir ko'rsatishini hisobga olgan holda ma'naviy tarbiya indikatorlarining zaruriylik talablaridan kelib chiqqan holda tadqiqotimizni olib borish.
- Onglilik va faoliyat birligi tamoyili – onglilik o'quvchilarning ma'naviy salohiyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham tadqiqotimiz davomida o'quvchilarning faoliyat yo'nalishini o'zgartirish orqali uning anglash darajasining yangi bosqichiga ko'tarilishga erishimiz lozim.
- Kompleksli yondashuv tamoyili – bir-biri bilan o'zaro bog'langan va o'zaro ta'sir doirasi bir-biriga o'xshash metodlarni tanlab olishga va ushbu metodlarni qo'llashga asoslanadi. Tanlangan har bir metod o'quvchining real hayot faoliyatiga to'g'ri kelishi va maqsadli yo'nalishga ega bo'lishi, hamda qayta tajriba o'tkazganda o'zining ishonchliligini tasdiqlashi lozim bo'lgan metodlardir.

Dasturning funksiyalari:

- Qayta tiklovchi – o‘quvchi-yoshlarda ma’naviy tarbiya indikatorlarini shakllantirishda oila tarbiyasi o‘rnining ijobiy sifatlarini qayta tiklash;
- Kompensatorlik – o‘quvchi-yoshlarda ma’naviy tarbiya indikatorlarini shakllantirishda ularning xulqidagi nuqsonlarni oila va umumta’lim muassasalaridagi hamkorlik texnologiyasi orqali pedagogik muvaffaqiyatlariga almashtirish;

Dasturdan olinadigan natijalar bashorati: umumta’lim maktab boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma’naviy tarbiya indikatorlarini shakllantirish modelini yaratishda yuksak samaradorlikka erishish;

Pedagogik ko‘rsatkich – Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirishda ta’lim muassasasi, o‘qituvchi va ota-onalar hamkorligini yanada takomillashtirish, bu orqali ularda o‘zlashtirish darajasini ko‘tarish, ta’lim olganlik, individual rivojlanish darajasini oshirish.

Tajriba sinov ishlarida kimlar ishtirok etdi?

- o‘qituvchilar;
- 1-4-sinf o‘quvchilari;
- ota-onalar;

Tajriba-sinov ishining asosiy metod va vositalari: tadqiqot jarayonida ko‘zlangan maqsadlarga erishish va qo‘yiladigan vazifalar yechimini topish uchun quyidagi tadqiqot uslublari qo‘llaniladi:

- ilmiy-uslubiy adabiyotlarini o‘rganish va tahlil qilish;
- ilg‘or amaliy tajribani tahlil qilish va umumlashtirish;
- pedagogik kuzatuvlar;
- pedagogik testlar;
- matematik statistika;
- anketa, savol-javob, suhbat, intervyu.

Tajriba sinov vaqti: tadqiqot ishlari ikki yil davomida 3 bosqichda amalga oshirildi.

Birinchi bosqichda (2021 yil): - mavzuga doir ilmiy-pedagogik, tarixiy, falsafiy, psixologik adabiyotlar, Sharq mutafakkirlarining barkamol shaxs tarbiyasi, iqtisodiy tarbiya haqidagi ta'limotlari kreativ yondashuvlar asosida o'rganildi;

- Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirishga oid nazariy qarashlar asoslandi;
- tajriba maydonlari aniqlandi;
- sinov ishlariga jalb etiluvchi respondentlar soni belgilandi;
- ular asosida tajriba sinov va nazorat guruhlarini shakllantirildi;
- tajriba sinov ishlarining dasturi va rejasi ishlab chiqildi.

Ikkinchi bosqichda (2022 yil): - tajriba sinov ishlari amalga oshirildi;

- ta'lim muassasasi faoliyatini doimiy tahlil qilish, tajriba ishlari respondentlarining faoliyatlarini bevosita va bilvosita kuzatish asosida ularda ma'naviy tarbiya indikatorlarini rivojlanganlik darajasi tahlil etildi;

Uchinchi bosqichda (2023 yil): - keng ko'lamda tajriba tajriba-sinov ishlari yakunlandi;

- Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilib, ularning samaradorligini amaliy faoliyat vositasida o'rganildi;
- Tajriba sinov ishlarining natijalari umumlashtirildi, tahlil etildi va statistik tahlil yordamida yakuniy natijalarning haqqoniyligi asoslandi;
- To'plangan materiallar, tahliliy ma'lumotlar jamlanib, dissertatsiya holatiga keltirildi.

Dasturning metodik ta'minoti:

- test metodikalar to'plami;
- suhbat, so'rovlar to'plami;
- aniqlashtirilgan arxiv ma'lumotlari;
- didaktik ta'minoti (kompyuter, multimedia texnikalari);

3.1. 1-jadval

Tajriba sinov ishlari bo'yicha o'tkazilgan metodikalar (o'qituvchilar uchun)

№	Metodikaning nomi	O‘tkazilishdan maqsad	Vaqt
1	“O‘qituvchi faoliyati motivatsiyasini aniqlash diagnostikasi”	Boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy bilim tushunchasini shakllanganlik darajasini aniqlash	

3.1. 2-jadval

Tajriba sinov ishlari bo‘yicha o‘tkazilgan metodikalar (ota-onalar uchun)

№	Metodikaning nomi	O‘tkazilishdan maqsad	Vaqt
1	“Farzandingizning tadbirkorlik qobiliyati” so‘rovnomasi	Ota-ona farzandining tadbirkorlikka qiziqishini bilishini aniqlashtirish	

3.1. 3-jadval

Tajriba sinov ishlari bo‘yicha o‘tkazilgan metodikalar (o‘quvchilar uchun)

№	Metodikaning nomi	O‘tkazilishdan maqsad	Vaqt
1	“XXI asrda eng yaxshi kasblar qaysi?” debati	O‘quvchilarning iqtisodiy kasblar mavjudligini aniqlash	
2	“Iqtisodiy bilimlar ijtimoiy hayot uchun zarur” metodikasi	1-4-sinf o‘quvchilarning iqtisodiy bilimlarning ahamiyatini anglashga o‘rgatish	
3	“Orzuyimdagi fabrika” kichik esse strategiyasi	O‘quvchilar va ota-onalar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni tashkil etish	
4	“Ajdodlarga munosib avlod” muloqot treningi	Iqtisodiy bilimlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi ma’rifiy tadbirlar o‘tkazish	

3.2-§. Tajriba-sinov ishlari natijalari.

Boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirish omillarida iqtisodiy bilim tushunchalarini shakllantirishda Sharq mutafakkirlarining boy, ilmiy merosdan foydalanish orqali yanada rivojlantirish lozimligini, boshlang‘ich ta’limning ahamiyati yuqori ekanligini ochib berishga harakat qildik. Shuningdek, bu borada ota-onalar va ta’lim musassasasining hamkorlik ishlarining zaruriyati ham mavjudligini ko‘rsatib o‘tmoqchi edik.

Shu maqsadda 2021-2023 yillar davomida tajriba-sinov ishlari o‘tkazildi. Magistrlik dissertatsiyani tayyorlash jarayonida Surxondaryo viloyatining Oltinsoy va Denov tumanlaridagi 4 ta umumta’lim maktabi 1-4-sinf

o'quvchilarida texnologiya darslari orqali iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirish darajasi qiyosiy o'rganildi. Bular Denov tumanidagi 14, 46 – sonli Uzun tumanidagi 5, 9-sonli umumta'lim maktablaridagi boshlang'ich sinf o'quvchilari qatnashdi.

Tajriba-sinov ishlari quyidagi masalalarni hal qilish ko'zda tutilgan edi. Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirish darajasini kuzatish va o'rganish orqali bunda ota-onalar ishtiroki darajasini baholash va shu asosda tadqiqotimiz dasturini ishlab chiqish, umumta'lim maktablarining 1-4-sinf o'quvchilarining o'qituvchilar, ota-onalar bilan ishlashning yangicha mexanizimini ishlab chiqish bo'yicha boshlang'ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirish modelini yaratdik.

Mazkur modelda o'quvchilarning ta'lim-tarbiyaga munosabatini, ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarning shakllanganlik darajasi, o'qituvchilar va ota-onalarning kompleks hamkorlik ishlari, umumta'lim maktablarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimi bo'yicha aniqlashi lozim bo'lgan asosiy kategoriyalar aks ettirilgan.

Tajriba-sinov ishlari to'rt bosqichda amalga oshirilgan bo'lib, birinchi bosqich – **ta'kidlovchi tajriba ishlarimiz** 2022-yil fevral-mart oylarida o'tkazilib, unda umumta'lim maktablardagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimi tahlil etildi. Ta'kidlovchi tajriba-sinov ishlarini o'tkazishda suhbat, anketa, kuzatish, o'quv hujjatlarini o'rganish metodlaridan foydalandik. Ta'kidlovchi tajriba-sinov ishlari yakunida olingan natijalar umumlashtirildi, matematik-statistik tahlil yordamida ilmiy xulosalar chiqarildi.

Izlanuvchi tajriba-sinov ishlarimiz (2022-yil sentabr-noyabr) natijalarida ta'kidlovchi tajriba-sinov ishlari jarayonida aniqlangan 240 nafar boshlang'ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirishning ma'naviy-ma'rifiy ishlarini samarali tashkil etish, o'tkazish va jarayonni baholashning mavjud holati kamchiliklarini bartaraf etishning shakl, usul va vositalari tavsiya etildi. Mazkur ta'lim muassasalarida o'quvchilarning

ma'naviy tarbiya indikatorlarini shakllantirish va rivojlantirish imkoniyatlari belgilandi. Ota-onalar majlislari tashkil etilib, farzand ta'lim-tarbiyasi borasidagi mas'uliyat va javobgarlik masalalari ota-onalar ishtirokida qizg'in muhokama etildi. Aniqlovchi tajriba savollari va "Farzandingiz ma'naviy qiyofasi" nomli pedagogik-psixologik testlar o'tkazildi. Olingan natijalar umumlashtirilib, o'quvchi-yoshlarning ma'naviy tarbiya mezonlarini rivojlantirishda ota-onalarning faolligini yanada oshirish, bu ishlarni tashkil etishning samaradorligini oshirish usullari, shakllari ishlab chiqildi. Izlanuvchi tajriba sinov ishalrida olingan natijalarni tahlil qilish asosida ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Shakllantiruvchi tajriba sinov ishlari (2022-yil noyabr – 2023-yil fevral)

Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirish modelini yaratish, sog'lom oila muhitini tarkib toptirish, o'qituvchilarning deontologik vazifalarini belgilash bo'yicha tavsiya etilgan yangi shakl va usullar tashkil etildi., o'tkazildi va sinab ko'rildi. Tajriba o'tkazilayotgan maktab 1-4-sinf o'quvchilarining iqtisodiy bilim tusunchalari mezonlari darajasini baholashning pedagogik asoslari ishlab chiqildi, tajriba-sinov guruhlarini tashkil etildi hamda ular bilan birgalikda tajriba ishlari olib borildi.

Yakunlovchi tajriba sinov ishlari (2023-yil mart-aprel oylari)

ta'kidlovchi va shakllantiruvchi tajriba-sinov ishlarining natijalaridan olingan ma'lumotlarning to'g'riligi bo'yicha aniqliklar kiritildi. O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalarida 1-4-sinf o'quvchilari o'rtasida ta'lim-tarbiyaga, iqtisodiy bilimlarga, atrofdagi voqelikka munosabat o'zgarishlari umumlashtirildi, izohli tahlil amalga oshirildi. Iqtisodiy bilim tushunchalarini shakllantirish borasidagi kompleks hamkorlik ishlarini yo'lga qo'yish, olingan tajribalar asosida ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar majmui ishlab chiqildi. Olib borilgan pedagogik tadqiqotlardan maqsad - boshlang'ich sinf o'quvchilaning iqtisodiy bilim tushunchalarini shakllantirish omillarini belgilash asnosida ularda iqtisodiy bilimlarini shakllantirish darajasini qanday o'zgarishini tahlil qilishdan iborat.

Ushbu bob o‘quvchilarning iqtisodiy bilimlarini shakllantirish mezonlarini darajasini tashxislash, baholash, ota-onalarning o‘zaro munosabatlar tizimi va yuksak axloqiy fazilatlarni rivojlantirish darajasiga matematik statistik ishlov berish ishlari bilan ahamiyatga ega.

Tajriba sinov avvalida tajriba sinov guruhiga 124 nafar – 1 “a”, 2 “a”, 3 a”, 4 “a”- sinf o‘quvchilari, nazorat guruhiga esa 116 nafar – 1 “b”, 2 “b”, 3 “b”, 4 “b”- sinf o‘quvchilari olindi.


Tajriba-sinov avvalida (2021 yilning mart oyiga qadar) o‘quvchilarning iqtisodiy bilimlarini tushunchalarining shakllanganlik darajasi quyidagi jadvalda aks etgan (3.2.1-jadval):

3.2.1-jadval

3.2.1-jadval. Tajriba-sinov ishlarida qatnashgan guruhlar

<i>Darajalar</i>	Nazorat guruhi		Tajriba-sinov guruhi	
	<i>Ishirokchilar soni</i>	%	<i>Ishirokchilar soni</i>	%
<i>Past</i>	39	31.4	38	32.7
<i>O‘rta</i>	64	51.6	55	47.4
<i>Yuqori</i>	21	17	23	19.9

Ushbu jadvalda keltirilgan ma’lumotlarning grafik tasvirini quyidagi diagrammmalar ko‘rinishida ifodalaymiz:



3.2. 1-rasm. Iqtisodiy bilim tushunchalarining shakllanganlik darajasi (Tajriba-sinov boshida)

Kuzatish, tajriba-sinovlar olib borishdan maqsad, boshlang'ich sinf o'quvchilarning iqtisodiy bilim tushunchalarini shakllantirishda avvalo, boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan birgalikda "Texnologiya" fanining o'qituvchilari, ota-onalar bilan birgalikda olib boriladigan keng qamrovli hamkorlik ishlarining ko'lamini oshirish bo'lib, amalga oshirilgan ishlar natija bersa samarali yo'l tanlagan hisoblanamiz.

Tajriba-sinov yakunida (2023-yilning aprel oyi) o'quvchilarning iqtisodiy bilim tushunchalarining shakllanganlik darajasi quyidagi jadvalda aks ettirilgan (3.2.2-jadval):


3.2.2-jadval

3.2.2-jadval. Tajriba-sinov ishlarida qatnashgan guruhlar

Darajalar	Nazorat guruhi		Tajriba-sinov guruhi	
	Tajriba boshida	Tajriba oxirida	Tajriba boshida	Tajriba oxirida

	<i>Ishtirokchilar soni</i>	<i>%</i>	<i>Ishtirokchilar soni</i>	<i>%</i>	<i>Ishtirokchilar soni</i>	<i>%</i>	<i>Ishtirokchilar soni</i>	<i>%</i>
<i>Past</i>	39	31.4	39	31.4	38	32.7	30	25.9
<i>O'rta</i>	64	51.6	63	50.8	55	47.4	57	49.1
<i>Yuqori</i>	21	17	22	17.8	23	19.9	29	25

Ushbu jadvalda keltirilgan ma'lumotlarning grafik tasvirini quyidagi diagrammmalar ko'rinishida ifodalaymiz:



3.2. 2-rasm. Iqtisodiy bilim tushunchalarining shakllanganlik darajasi (Tajriba-sinov yakunida)

Yuqoridagi jadvallarda ko'rsatib o'tilgan sonli ma'lumotlar statistik tahlil qilindi. Buning uchun biz X_1 lar orqali nazorat hamda Y_1 orqali esa tajriba guruhlariga mos o'zlashtirish darajalarini belgiladik. Bu kattaliklar har biri "quyi" daraja 3, "o'rta" 4, "yuqori" 5 qiymatlarini qabul qilishi belgilandi. Bunday qiymatlarga ega har ikki guruhlardagi o'quvchilarning sonlarini mos ravishda

belgilanadi. Natijada yuqoridagi 3-jadvalda tajriba-sinov ishalari o'tkazilishidan oldin nazorat va tajriba-sinov guruhlaridagi boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiy bilim tushunchalarining shakllanganlik darajasi quyidagicha aniqlandi:

$$X_1 = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^3 x_i n_i = \frac{1}{124} (3 \cdot 39 + 4 \cdot 64 + 5 \cdot 21) = \frac{1}{124} (117 + 256 + 105) = \frac{449}{124} \approx 3.85$$

$$X_1 \% = \frac{3.85}{10} \cdot 100 \% = 38.5 \%$$

$$Y_1 = \frac{1}{m} \sum_{i=1}^3 y_i m_i = \frac{1}{116} (3 \cdot 38 + 4 \cdot 55 + 5 \cdot 23) = \frac{1}{116} (114 + 220 + 115) = \frac{471}{116} \approx 3.87$$

$$Y_1 \% = \frac{3.87}{10} \cdot 100 \% = 38.7 \%$$

Biz olib borilgan tajriba-sinov ishlarining samarador ekanligini ko'rsatish maqsadida 3.2.1 - jadvaldan sonli ma'lumotlar bo'yicha matematik statistika usullari yordamida chuqur tahlil olib boriladi. Yuqoridagi belgilarni saqlagan holda biz 3.2.2 - jadvalni 2 ta statistik tanlanma shaklida quyidagi ko'rinishda yozib olinadi:

$$\begin{cases} Xi: 3; 4; 5. \\ Ni: 39; 63; 22 \end{cases} n=124$$

$$\begin{cases} Yi: 3; 4; 5. \\ Mi: 30; 57; 29 \end{cases} n=116$$

Tajriba-sinov ishlari yakunida o'quvchilarning iqtisodiy bilim tushunchalarining shakllanganlik darajasi hisoblanadi.

$$X_1 = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^3 x_i n_i = \frac{1}{116} (3 \cdot 39 + 4 \cdot 63 + 5 \cdot 22) = \frac{1}{116} (117 + 252 + 110) = \frac{449}{116} \approx 3.86$$

$$X_1 \% = \frac{3.87}{10} \cdot 100 \% = 38.6 \%$$

$$Y_1 = \frac{1}{m} \sum_{i=1}^3 y_i m_i = \frac{1}{124} (3 \cdot 30 + 4 \cdot 57 + 5 \cdot 29) = \frac{1}{124} (90 + 228 + 145) = \frac{510}{124} \approx 39.9$$

$$Y_1 \% = \frac{3.87}{10} \cdot 100 \% = 39.9 \%$$

Demak, tajriba sinov ishlari yakunida tajriba guruhlaridagi iqtisodiy bilim tushunchalarining shakllanganlik darajasi nazorat guruhlariga sezilarli darajada o'zgardi. Nazorat guruhi tajriba avvalida 38.5 % edi, tajriba yakunida 38.6 % bo'ldi, ya'ni nazorat guruh o'zgarmaganligi kuzatildi. Tajriba-sinov guruhidagi 1-4-sinf o'quvchilarining iqtisodiy bilim shakllanganlik darajasi ham o'sganligini

ko‘rish mumkin. Ushbu ko‘rsatkich tajrib-sinov ishlari boshlanganida 38.7 % edi, tajriba-sinov ishlari yakunida 39.79% ga o‘sganini ko‘rsatdi, bu esa tajribamizning ko‘rsatkichlari 1.2 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

III bob yuzasidan xulosalar.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar mazmuni yosh avlodni ma‘naviy yetuk, intellektual salohiyatli barkamol avlod qilib tarbiyalashga qaratilgan. Yosh avlod ma‘naviyatini yuksaltirishga o‘ta muhim vazifa sifatida qaralib, milliy ma‘naviyatimizning mushtarakligiga erishish, o‘zlikni anglash va ma‘naviy tarbiya ishlarini sifat jihatidan yuqori pog‘onaga ko‘tarish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘tirof etdi. Mustaqillikning dastlabki davrlaridan boshlab milliy o‘zligimiz va milliy qadriyatlarimizni anglash, ma‘naviyati yuksak barkamol avlodlarni kamol toptirish eng muhim vazifalardan biri etib belgilandi. Barkamol insonni tarbiyalash, uni voyaga yetkazish, sog‘lom ma‘naviy muhitni tarkib toptirish, yoshlarni o‘qitish va tarbiyalash milliy tarbiya va ma‘naviyat asosida quriladi.

Mamlakatimizda ulkan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma‘naviy islohotlar olib borilmoqda. Bunday sharoitda yoshlarning iqtisodiy tarbiyasida ularni ma‘naviy barkamol inson qilib tarbiyalashda nazariy asos sifatida xizmat qilmoqda. Iqtisodiy bilim tushunchalarining shakllantirish jamiyat talablariga bog‘liq bo‘lib, bu talablar o‘z navbatida ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi va jamiyatda yoshlarni o‘qitish va tarbiyalash ishlarining barchasi yosh avlodda tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishga, biznes savodxonligini oshirishga, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi lozim. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida iqtisodiy bilim tushunchalarining shakllantirish, ulardagi tejamkorlik ko‘nikmalari asosida tarbiyalash tizimini takomillashtirishda boshlang‘ich ta‘lim muhim o‘rin egallaydi.

UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR

Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy bilim tushunchalarining shakllantirish avvalo, ma'naviy yetuk shaxslar qiyofasini shakllantirishga, iqtisodiy (kompetensiya)larni tarkib toptirishga, salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiy bilim tushunchalarining shakllantirish murakkab va uzluksiz jarayon davomida shakllanadi. Olib borilgan tadqiqotimiz yuzasidan o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarida davomida quyidagi xulosalarni keltirib o'tamiz:

1. Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida iqtisodiy bilim tushunchalarining shakllantirishda tejamkorlikka doir maqsadli tadbirlarni o'qitish va o'qish jarayonini yuksak darajada uyushtirilishi kerak.
2. Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida o'quvchilarida iqtisodiy bilim tushunchalarining shakllantirish o'quvchilar va o'qituvchilar jamoasining saviyasiga bog'liq. O'qituvchi tomonidan tashkil etiladigan iqtisodiy bilimlar xususidagi dars mashg'ulotlari samarali tashkil etilishi lozim.
3. Maktabda ijobiy, emotsional sharoit yaratish ma'naviy tarbiya jarayoniga muvaffaqiyatli ta'sir ko'rsatadi. Barcha o'quvchilarning maktabdagi umumiy tartib, hayot rejimiga amal qilishiga erishmoq darkor.
4. Ma'naviy tarbiyada ongini, axloqiy tushunchalarni shakllantirishda suhbat, munozara, leksiya kabi metodlardan, axloqiy odatni shakllantirishda esa mashq, bolalarni turli faoliyatini yuritish metodlaridan foydalaniladi.

Ma'naviy tarbiyada uning natijasini hisobga olish ham muhim ahamiyatga ega.. Shaxsni to'la o'rganish - uni qay darajada tarbiyalanganligini aniqlab beradi. Tadqiqotimizda o'quvchilar, o'qituvchilar va ularning ota-onalari bilan olib borilgan kompleks ishlar o'zining samarasini ko'rsatdi. Demak, ma'naviy tarbiyani shakllantirishda tizimli va maqsadli yondashuvlar doimo ijobiy natijalarga olib keladi degan xulosani ayta olamiz.

1-4-sinf o'quvchilarida ma'naviy tarbiyani shakllantirishda ta'lim tashkilotlarining o'quvchilar jamoasi bilan hamkorlikdagi shart-sharoitlarning tashkillashtirilishi, o'quv mashg'ulotlari bilan o'zaro uyg'unligi, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni tashkil etish va maqsadli yondashuvlardan ijodiy foydalanish o'ziga xos murakkab pedagogik-psixologik jarayon bo'lib, tajriba-sinov ishlariga asoslanib, quyidagilarni tavsiya qilamiz:

1. 1-4-sinf o'quvchilarida ma'naviy tarbiya indikatorlarini shakllantirishda ijtimoiy institutlarning faolligini yanada oshirish lozim.
2. Ma'naviy tarbiya indikatorlarini shakllantirishda tarbiya va ibrat namunasi bo'lgan mas'ul shaxslarning (ota-onalar, o'qituvchi-tarbiyachilar, mahalla faollari)larning ushbu yondashuvga mas'uliyat bilan yondashishini tashkillashtirish.
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularga ma'naviy tarbiya indikatorlarini bosqichma-bosqich shakllantirib rivojlantirish lozim.
4. Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarida yuqorida keltirilgan metod, vosita va turli pedagogik-psixologik treninglardan foydalanish orqali ma'naviy kompetentlikni yanada rivojlantirish lozim.
5. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tizimli ravishda tashkil etish;
6. Ma'naviy tarbiya indikatorlarini shakllantirishda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning xalqaro tajribalar asosida tashkil etish (diafilmlar, ertaklar, didaktik vositalar)
7. Ma'naviy tarbiya indikatorlarini shakllantirishda mutafakkir, olimlarimizning boy ilmiy merosidan samarali foydalanish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNLARI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent, -O'zbekiston, 2014.
2. O'zbekiston Respublikasining -Ta'lim to'g'risida gi Qonuni. -Toshkent, -Sharq, 2020-yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda
4. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida.
5. Mirziyoyev Sh. M. - Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz – Toshkent, -O'zbekiston, 2017.
6. Mirziyoyev Sh. M. -Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz Toshkent, -O'zbekiston, 2017.

II. ASOSIY ADABIYOTLAR:

7. Tojiboev A., Asatullaeva M. Iqtisodiy ta'lim-tarbiya jarayonida ma'naviy meroslardan foydalanish // Kasb-hunar ta'limi. – Toshkent, 2005. -№1. – B. 29.
8. Xudoyqulov A.B. Jamiyat ijtimoiy rivojlanishida iqtisodiy ongning roli: Falsafa fanlari nomzodi. diss. – T., 2005. – B.43.
9. Abdullaev A. Islomda iqtisodiy tafakkur // Muloqot, 1997. - №2. – B.56-57.
10. Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri / Tuzuvchi M.Mahmudov. – Toshkent, Meros, 1993. – B.185.
11. Xudoyqulov A.B. Jamiyat ijtimoiy rivojlanishida iqtisodiy ongning roli: Falsafa fanlari nomzodi. diss. – T., 2005. – B.47.
12. Yusuf Xos Xojib. Qutadg'u bilig. – T.: Akademnashr, 2015. – 556 b.
13. Temur tuzuklari / Forschadan A.Sog'uniiy va X.Karomatov tarjimasi. – T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 1991. – B.67

14. Temur tuzuklari / Forschadan A.Sogʻuniy va X.Karomatov tarjiması. – T.: Gʻafur Gʻulom nashriyoti, 1991. – B.67.
15. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar toʻplami. Oʻn toʻrtinchi tom. – T.: «Fan», 1998. – B.15.
16. Islomov.V., Egamov E. Iqtisodiy taʼlimotlar tarixi. – Toshkent, Oʻzbekiston, 2003. – B.34
17. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – T.: Maʼnaviyat, 1998. – B.80-81
18. Rasulov M. Bozorni ijtimoiy tartiblashtirish. Oʻquv qoʻllanma. – Toshkent, Moliya, 2003. – 73b
19. Hayitov O.E., Yakubov I.I. Oilaviy tadbirkorlik // «Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va jamiyatni yangilashning ustuvor yoʻnalishlari» mavzusidagi universitet yosh olimlari, magistrantlar va talabalari ilmiy-amaliy anjumani maʼruzalar toʻplami (28-29 aprel 2006 yil). – T.: TDIU, 2006. – B. 87
20. Davies H. A review of enterprise and the economy in education. HM Treasure, 2002. URL: www.dfes.gov.uk
21. Электронный журнал «Junior Achievement Incorporated». – <http://www.jaintl.org/>
22. Gibb A. A note on the meaning of entrepreneurial core qualities and qualities and management. – L., 1998. – P.17.
23. Урванцева С.Е., Александрова И.С. Обучение основы предпринимательства в зарубежных школах // Экономика в школе. – М., 2017, №3. С. 51-60.
24. Кремнева Т.Л. Подготовка социальных работников в Великобритании: автореф. дис. д-ра пед. наук. – М., 1999. – С. 31.
25. Youth Entrepreneurship: Theory, Practice and Field Development. 2006. Sep. P. 18.
26. Davies H. A review of enterprise and the economy in education. HM Treasure, 2002. URL: www.dfes.gov.uk.

27. Климова Е. Профессиональная деятельность предпринимателя. СПб.: Скифия, 2014. – С. 33.
28. Грасс Т.П. Экономическая социализация подрастающих поколений в развитых странах / Lambert Academic Publishing. Германия, 2011. – С. 116
29. Петрищев В.И., Грасс Т.П. Предпринимательство как фактор экономической социализации школьной молодежи (на примере России и зарубежных стран). Красноярск, 2011.

III. QO‘SHIMCHA ADABIYOTLAR:

30. Filosofskiy slovar / pod red. I. T. Frolova, 6-e izd. - M.:Politizdat, 1991. – 559 s.
31. Nain, A. YA. Organizatsiya opytно-eksperimentalnoy raboty i ponyatiynogo apparata issledovaniya: uchebno-metod. posobie / A. YA. Nain, 3.M. Umetbaev. - CHelyabinsk : UralGUFK; Magnitogorsk: MaGU, 2008. – 64 s.
32. Skatkin, M. N. Metodologiya i metodika pedagogicheskix issledovaniy /M. N.Skatkin. - M. : Pedagogika, 1986. – 152 s. – S.54.
33. Polonskiy V.M. Otsenka kachestva nauchno-pedagogicheskix issledovaniy / V.M.Polonskiy. -M.: Pedagogika, 1986. – 152 s.

ILOVALAR

1-ilova

Aniqlovchi tajriba savollari (O'qituvchilar uchun)

1.	Iqtisodiy tarbiya deganda nimani tushunasiz?
2.	Iqtisodiy bilimlar haqidagi tushunchaga izoh bering.
3.	Sizningcha, 1- 4-sinf o'quvchilarida texnologiya darslari orqali iqtisodiy bilim tuhsunchasini shakllantirish mumkinmi?
4.	Fikringizcha, boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtisodiy tushunchasi shakllantirish masalasini o'rganish muhimmi?
5.	Siz, 1- 4 -sinf o'quvchilarida iqtisodiy bilimlarini shakllantirishda qaysi usullardan foydalanasiz?
6.	Texnologiya darslari orqali ularni tejamkorlikka o'rgatish mumkinmi?
7.	Sizningcha, tejamkorlik ko'nikmasi qanday bo'lishi kerak?
8.	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mavjud bo'lishi kerak bo'lgan iqtisodiy tarbiyaga oid iqtisodiy bilim tushunchalarni belgilang. 1. _____ 2. _____ 3. _____ 4. _____ 5. _____ 6. _____ 7. _____ 8. _____ 9. _____ 10. _____
9.	Nazaringizda, iqtisodiy bilim tushunchalarini shakllantirishda pedagoglarda qaysi qobiliyatlar shakllangan bo'lishi lozim? 1. _____ 2. _____ 3. _____ 4. _____ 5. _____ 6. _____
10.	Siz, o'quvchilarga texnologiya darslarida ham tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish uchun qanday amaliy ishlarni amalga oshirgansiz?

So'rovnomadan ishtirok etganingiz uchun rahmat!

Aniqlovchi tajriba savollari (O'quvchilar uchun)

1.	Siz texnologiya faniga qiziqasizmi? a) Ha, qiziqaman b) yo'q, qiziqmayman c) bilmayman
2.	Texnologiya darsligida keltirilgan applikatsiyalar yasash sizga yoqadimi? a) Ha, yoqadi b) yo'q, yoqmaydi c) bilmayman
3.	Texnologiya darsligida keltirilgan robotlarni yasash sizga yoqadimi? a) Ha, yoqadi b) yo'q, yoqmaydi c) bilmayman
4.	Iqtisodiy bilimlarizni oshirishni xohlaysizmi? a) Ha, xohlayman b) yo'q, xohlamayman c) bilmayman
5.	Jamoat joylarida o'zizni yaxshi tutasizmi? a) Ha b) yo'q c) bilmayman
6.	Siz tez-tez turli xildagi o'yinchoqlarni yasash yoki ixtiro qilish haqida gapirib turasizmi? a) Ha, gapiraman b) yo'q, gapirmayman c) bilmadim
7.	Siz tartib-intizomga rioya qilasizmi? a) Ha, rioya qilaman b) yo'q, rioya qilmayman c) bilmayman
8.	Siz do'stlaringiz bilan ahil-inoqmisiz? a) Ha, ahilman b)yo'q, ahil emasman c) bilmayman
9.	Tejamkorlik haqida bilasizmi? a) Ha, bilaman b) yo'q, bilmayman
10.	Sizningcha, hamma odamlar tejamkor bo'lishi kerakmi? a) Ha b) yo'q c) bilmayman
11.	Siz Vatanga sadoqat fazilatini bilasizmi? a) Ha bilaman b) yo'q, bilmayman
12.	Siz uyda ota-onangizga uy ishlarida yordamlashasizmi? a) Ha b) yo'q c) bilmayman
13.	Uyga berilgan vazifalarni qat'iyat va sabr bilan bajarasizmi? a) Ha, bajaraman b) yo'q, bajarmayman c) bilmayman
14.	Sizningcha, o'quvchilar mas'uliyatli bo'lishi kerakmi? a) Ha b) yo'q c) bilmayman
15.	Ozodalik va gigiyena qoidalariga rioya qilasizmi? a) Ha, albatta b) yo'q c) bilmayman
16.	Siz ota-onangiz bilan yaxshi munosabatda bo'lasizmi? a) Ha, albatta b) yo'q c) bilmayman
17.	Siz turli xildagi materiallardan yasalgan asbob-anjomlar haqidagi kitoblarni o'qib turasizmi? a)ha b)yo'q c) bilmayman

So'rovnomadan ishtirok etganingiz uchun rahmat!

Aniqlovchi tajriba savollari (Ota-onalar uchun)

1.	Farzandingizning tarbiyasi bilan tez-tez shug'ullanib turasizmi?
2.	Iqtisodiy tarbiya tushunchasiga izoh bering.
3.	Sizningcha, 1- 4-sinf o'quvchilarida iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirish omillarini nimada deb o'ylaysiz?
4.	Fikringizcha, boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirish masalasini o'rganish muhimmi?
5.	Siz, 1- 4 -sinf o'quvchilarida iqtisodiy bilim tushunchasini rivojlantirishda qaysi usullardan foydalanasiz?
6.	Tejamkorlik va mehnatsevarlik deganda nimani tushunasiz?
7.	Sizningcha, tadbirkorlik qanday bo'lishi kerak?
8.	Siz, farzandingizning tadbirkor bo'lishi uchun nimalar qilar edingiz? 1. _____ 2. _____ 2. _____ 4. _____ 5. _____ 6. _____ 7. _____ 8. _____ 9. _____ 10. _____
9.	Nazaringizda, iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirishda ota-onalarda qaysi ko'nikmalar shakllangan bo'lishi lozim? 1. _____ 2. _____ 3. _____ 4. _____ 5. _____ 6. _____
10.	Siz, farzandingizning kelajakda tadbirkor, biznesmen kasbini egallashi uchun qanday amaliy ishlarni amalga oshirgansiz?

So'rovnomadan ishtirok etganingiz uchun rahmat!